

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

MAVZU: Hozirgi o`zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari

Bajaruvchi:

Rajabova Nafisa

NAVOIY-2015

MUNDARIJA:

<i>Kirish</i>	4-7
I. bob. HOZIRGI O`ZBEK SHE`RIYATINING TARAQQIYOT TAMOYILLARI	
<i>I.1.</i> Bugungi kun she`riyatining o`ziga xos xususiyati.....	8-23
<i>I.2.</i> XX asr o`zbek she`riyatida poetik obraz va uning tadriji.....	23-29
II. bob. BUGUNGI O`ZBEK SHE`RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR.	
<i>II.1.</i> She`riyatda ramziylik.....	29-39
<i>II.2.</i> Istiqlol davrida doston shaklida yaratilgan asarlarga munosabat	39-48
Xulosa	48-50
Foydalanilgan adabiyotlar	51

Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining, bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Islom KARIMOV.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik quvvat va imkoniyatga ega emas. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangi XXI asr inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning tez o'sishi va yangilanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki adabiyot badiiy so'z va obrazlar vositasida omma ruhiyatida tubdan o'zgarish yasaydi. Buning uchun ijod ahli erkin nafas olish, xohlagan mavzusida qalam tebratish, istagan muammosini ko'tarish va, albatta, ko'ngliga ma'qul keladigan qahramon timsoli orqali tasvirlash huquqiga ega bo'lishi kerak. Qariyb chorak kam bir asr mobaynida qog'ozda bor-u, amalda bo'lmagan bunday "erkinlik" adiblarimiz tafakkurini tushovga solib qo'ygandi. Mustaqillik tufayli bu tushov uzildi. Adabiyotga – so'z san'atiga chinakam erkinlik berildi va u qonun asosida mustahkamlab qo'yildi. Natijada, adabiyotda juda katta ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi.

Buning samarasi tez orada aniq ko'zga tashlandi, ya'ni jadallik bilan o'sib borayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tafakkurlar ta'sirida adabiy-badiiy tafakkur ham shakllanib, ulg'ayish yo'lga kirdi. Dastlab, odamzodning iqtisodiy bo'hronlar ummonidagi suzish qiyinchiliklari, cho'kish azobi, ikkilanish,

bemaqsad quloch otishlarini real tasvirlashdan o`zini tiygan adabiyot ahli yangi asrning ilk yillaridan boshlab, bu mavzuni jiddiy ishlashga kirishdi. Bozor va inson taqdiri keyingi yillar o`zbek nasrining eng ko`p ishlanayotgan muammosiga aylandi.

Bozor munosabatlari o`z-o`zidan insonning jamiyat, oila, jamoa, o`zga yurt va odamlar o`rtasidagi ziddiyat hamda aloqalar silsilasini ham yuzaga chiqaradi. Bunday vaziyatda turmushini o`nglash uchun urinayotgan shaxs manfaati bilan yangilanishga yuz tutayotgan jamiyat va siyosat manfaatlari o`rtasida o`zaro to`qnashuvlar vujudga keladi. Ular o`z navbatida oilaviy munosabatlarga ham, axloqiy evrilishga ham, insonning yovuzlik sari yuz tutishiga ham u yoki bu darajada ta'sir o`tkazmay qolmaydi. Haqiqiy san'atkorning vazifasi esa insoniyatning kelajagini ta'minlovchi umidbaxsh g`oyalarni ilgari surish, ular dunyoqarashida ezgulik, mehr-oqibat va bag`rikenglik kabi fazilatlarni ifodalashga xizmat qiladigan ibratli obrazlarni yaratishdan iboratdir. Buning uchun ijodkorning estetik ideali g`oyatda sog`lom, ma'naviy dunyoqarashi yetuk, xalqi va Vatani oldidagi mas'uliyati barqaror bo`lishi kerak.

Mavzuning o`rganganlik darajasi. Istiqlol adabiyoti bugungi adabiyotshunosligi, adabiy tanqidchiligining eng dolzarb, eng ommabop mavzusi bo`lganligi sababli o`zbek adabiyotshunosligida mustaqillik she`riyatining bir qator o`ziga xos tomonlarini ilmiy-nazariy jihatdan o`rganuvchi fundamental tadqiqotlar yaratilgan. Adabiy tanqidning nazariy masalalariga bag`ishlangan monografiya va tadqiqotlar, o`quv-qo`llanmalari, realistik adabiyot va adabiy jarayon, tanqidchilikning hayotga ta`siri masalalarini o`rganuvchi to`plam va maqolalarda ushbu mavzuda atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi. Jumladan, P.Qodirov, O.Sharafiddinov, I.Haqqul, M.Qo`shjonov, U.Normatov, B.Nazarov, B.Imomov, D.Quronov, U.Hamdamiyov, H. Karimov kabi adabiyotshunoslarning yangi o`zbek she`riyati masalalariga bag`ishlangan qator maqolalari, darslik va qo`llanmalari e`lon qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishida XX asrning so`nggi choragida yuzaga kelgan adabiy-estetik hodisa – mustaqillik she`riyatining mavzu rang-barangligi janr talablariga mos ravishda taraqqiy topganligi adabiyotimizning oldingi bosqichlariga taqqoslangan holda yoritish maqsad qilib olindi. Shuningdek, she`riyatda ramziylik, shoirlarning ramzlar vositasida o`z qalb kechinmalarini kitobxonga “yuqtirish” mahorati, obraz yaratish mahorati o`rganildi. Mavzu mohiyatini yaqqoloq ochish uchun adabiyotimizning sobiq sho`ro davridagi shakl va mazmun mushtarakligi, badiiy obraz talablari va ular tashiydigan “yuk” masalalariga to`xtab o`tildi. Ayniqsa, bugungi kun dostonchiligi jadal taraqqiyot bosqichiga o`tgani sababli ishning so`nggi bobida doston shaklida yaratilayotgan asarlar, ularda syujet va kompozitsiya masalalarini yoritish muammolariga e`tibor qaratildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishiga tadqiqot obyektini sifatida tanlangan Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A.Qutbiddin, E.Shukur she`riyatida folklor zaminida shakllangan poetik obrazlar silsilasining yoritilishi: so`nggi davr she`riyatida shoirlarning maqol va hikmatli so`zlardan, afsonalar va doston motivlaridan foydalanish mahoratini tadqiq etilayotgani ishning ilmiy yangiligini ko`rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning milliy istiqloq g`oyasi va milliy istiqloq mafkurasining shakllanishi hamda adabiy madaniy merosdan foydalanish haqidagi asarlari bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi. Shu bilan birga mustaqillik yillarida o`zbek she`riyatining taraqqiyot tamoyillarini belgilab bergan bir qator ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlar tahlil qilingan ilmiy-nazariy tadqiqotlarga ega.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda o`zbek she`riyatining turli qirralarini inkishof etishga intilayotgan Rauf Parfi, Bahrom Ro`zimhammad, Faxriyor, H.Xudoyberdiyeva, Abduvali Qutbiddin kabi shoirlarimizning istiqloq yillarda yaratilgan asarlari asos qilib olindi.

Bitiruv ishining tuzilishi

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 54 sahifani tashkil etadi.

I bob. HOZIRGI O`ZBEK SHE`RIYATINING TARAQQIYOT TAMOYILLARI

I.1. Bugungi kun she`riyatining o`ziga xos xususiyati. Bugungi o`zbek she`riyatining an`anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va parodokslar, eng muhimi, betakror serohang, serma`no ifodalar bilan kitobxonni o`ylantiradi. Fikrning ixcham, lo`nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o`zbek she`riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir.

Xususan, iste`dodli shoir Bahrom Ro`zimhammad yaratgan ana shunday poetik kashfiyotlar an`anaviy shakllarga mos tushmaydi, gaplarning grammatik jihatdan parallel joylashtirilishi, ritorik tuzilish murojaat, xitob ohanglarini ifodalashga yo`naltirilganligi bilan yangicha:

Arvohning dastxatini ko`rdim
qoqilib yiqildim bir bo`lak tushga

Osmon

qorachig`i sug`urib olingan

ko`z kabi

Boyo`g`li uvillar edi

huvillab qolgan bog`da

Soyalar

hech kim taklif qilmasa-da

raqsga tushardi

Yana nima deyishim mumkin

dunyo keng ekan.

Mazkur she`rda Boyo`g`li uvillayotgan kimsasiz bog`, qorachig`i sug`urib olingan osmon, raqsga tushayotgan soyalar go`yo tush ko`rayotgan odam nigohlari orqali kuzatiladi. Tush esa o`limga qiyoslanadi. Shu bois, shoir tasvirlayotgan

manzara jonsiz, harakatsiz, ma'nisizday tuyuladi. Ammo insonning ko'zlariga yashiringan olam bilan aql va idrokka singishgan dunyo manzaralari ayni olamning turfa ko'rinishlaridir. Shoir dunyoning kengligini ta'kidlar ekan, uning rangin ekanligiga ham diqqatni qaratadi.

Jiyda guli
meni mast qildi
jin chaldi jiydaning ostida
Sap-sariq chiroqmikan bu gullar
yulduz shu'lasidan quvvat olarmi
nuqul qoshiqchalar jarangi
Eng xavflisi shundaki
bolari nektar yig`moq uchunmas
sizni chaqish uchun keladi...

Jiyda gulining iforidan mast holdagi lirik qahramon go`zallik o`g`risi sifatida tasvirlanadi. Tabiiy go`zallikning sharbatini simiruvchi bolarilar bu «o`g`rini» chaqish uchun kelayotganday. Manzara an'anaviy poetik tasvirga sira o`xshamaydi. Shoir aytmoqchi bo`lgan poetik fikr ham yashirin. Tasvirlanayotgan manzaradan kitobxon o`z zehni va tuyg`ulari quvvatiga ko`ra ma'no anglaydi: go`zallik qarshisida es-hushidan ayrilgan lirik qahramonni jin chalishi natijasida u jiyda gullarini sariq chiroqlarga, jiyda guliga parvona bolarining harakatlarini qoshiqchalar jarangiga o`xshatadi. Ayni shu nuqtada poetik ma'no yuzaga chiqadi: bizni o`rab turgan olam va uning go`zalliklaridan hayratlanishni, zavqlanishni bilmagan inson hayoti ro`yoga o`xshaydi. Bunday odamlar faqat yeyish-ichish g`ami bilan umr o`tkazadilar, ularni bolarining mashaqqatli mehnati natijasi emas, o`z jonining, huzr-halovatining bexavotirligi qiziqtiradi. Bunday odamlar bolaridan ham maydaroq, bolarichalik foyda keltirmaydigan, o`z nafsining qullaridir. She'rdagi manzara ichiga qarab harakatlanuvchi spiral ko'rinishli poetik tafakkur bu dunyoning rang-barang manzaralarga boyligini, har bir manzara o`z ichki ma'nolariga ega ekanligini ifoda qiladi. Shoir she'rlaridagi har bir so`z, har bir satr

muayyan bir obrazli ifodaga, ramziy ma'noga va ichki ohangga ega ekanligini quyidagi she'r orqali ham kuzatish mumkin:

Uzoq taraddudlanib turdi Qo`rquv
xotirjamlikka o`xshab bamaylixotir
tahlikaga chap berib turdi
Qo`lini soyabon qilib qoshiga
Vahima yashayotgan uyga qaradi
qaradi muzaffar navkar singari
So`ng esa
so`ng shunday alfozga tushdiki
qaltiramagan joyi qolmadi.

Qo`rquv obrazi orqali shoir diqqatimizni uning havfli ma'naviy illat ekaniga qaratadi. Kezi kelganda qo`rquv odamlar xotirjam, uddaburon, ayyor va o`ta ehtiyotkordirlar. Ammo mardlik talab qilinganda ular o`z-o`zini fosh etadi. Ana shu ma'nolar qo`rquv obrazi orqali tasvirlanayotgan manzara-holat zamiridan anglashiladi. Ko`rinib turibdiki, bunday she'rlarning chuqur ma'nolarini ilg`ab olish uchun ikki muhim omilni teran idrok etish talab qilinadi: birinchisi, Navoiy, Bedil singari san'atkor ijodkorlarning merosidan, an'analaridan; ikkinchisi, umumyevropa badiiy tafakkurining nafis namunalaridan boxabarlik bugungi o`zbek she'riyatida Bahrom Ro`zimuhammad kabi shoirlar ijodida ana shu ikki muhim omil o`zaro tutashib yangi badiiy kashfiyotlar yaratilishiga ta'sir ko`rsatmoqda. Barmoq vaznida yozilgan she'rlardan farqqiluvchi hijo, turoq va qofiyadan uzoq, xalq jonli tiliga yaqin bunday sərbast she'rlar ko`proq nasrga o`xshab ketsa-da, badiiy poetik tili, serma'noliligi, ohangi, so`z qo`llashdagi shoir mahorati ila she'riyatning ochilmagan sarhadlariga kitobxonni yetaklaydi, o`ylatadi, fikrlatadi.

Ilonning o`zidan emas
shaklidan qo`rqaman
shamoyili sovuq men uchun

mabodo mushukka o`xshaganida bormi
silab-siypalardim ilonni...

Hayotda muayyan shakl-shamoyilga, balki o`z nuqtai-nazariga egalik kimlardir cho`chitar, haq so`zni dangal aytuvchilardan ko`pchilik hadiksirar. Agar bunday odamlar daf`atan mo`min-qobil yo muloyim kishiga aylanib qolsalar, hamma «yoqtiradigan» qiyofaga kirishi mumkin. Xo`sh, mo`min-qobillar nima uchun barchaga yoqadi? Shoir «mo`min-qobillik» ortiga yashiringan ma`naviy illatlar haqida o`ylatayotir.

«Soyalari suhbatini» nomli she`rida shoir rang-obraz va rang-ramzdan mahorat bilan foydalangan:

Menga nima bo`ldi uchta soyam bor
Ikkitasi rangsiz bittasi sariq
Hiringlab kuladi bir soyam
Chunki yo`qotib qo`ydim bolaligimni
Topganim jiyda gulining ifori
U ham boshqa bog`ga o`tib ketgandi...

Shoir inson umrining pallalarini soyalarga o`xshatadi. Ikki rangsiz soya – bolalik va yigitlik davrini ma`nisiz o`tkazgan inson umrining soyalari. Sariq rangli soya – qarilik chog`i o`z umrini sarhisob etib, o`z ustidan kulayotgan, ya`ni bo`m-bo`sh hayoti ustidan hukm chiqargan insonning umumlashma obrazi. U hayotda yuksak yo ezgu maqsad uchun yashamagan, ammo qachondir go`zallikni sevgan. Afsuski, bu go`zallik ham «boshqa bog`ga o`tib ketgandi».

Keyingi yillarda yaratilgan o`zbek she`riyati namunalarini ko`zdan kechirar ekanmiz, jahon adabiyotiga xos ilg`or ijodiy an`analarni milliy ruhiyat ranglariga yo`g`irib ifodalash an`analarini ham, yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlarni; an`anaviy uslubning xilma-xil ifoda ko`rinishlarini ham kuzatish imkoniga ega bo`lamiz.

Bugungi o`zbek she`riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg`ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy

evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha boʻlgan davr oʻzbek sheʼriyatida lirik qahramon tuygʻulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish koʻzga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz koʻnikkan shakl va uslub chegaralaridan «qalqib chiqib», eʼtiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Lirik qahramon nigohi qadalgan manzara qatiga yashiringan maʼnolarni esa kitobxon oʻz tafakkur tuygʻulari, badiiy-estetik idroki va fahmi orqali anglab olishi mumkin. Bu xususiyat sheʼriyatning sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday anglayotganligini tasvirlashdan oʻsha betakror insonlarning turfa idroklari-yu his-tuygʻulariga, koʻngillariga oʻzlari yoʻl topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini oʻziga anglatish tomon qadam tashlanganligidan dalolat beradi. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga xos bu tendensiya qanday ijodiy-estetik tamoyillarda oʻz aksini topmoqda?

1. Oʻzbek shoirlarining oʻzbek klassik sheʼriyati va xalq ogʻzaki ijodiga xos anʼanalarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy maʼno tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida koʻrinadi:

«Xalqim deyman, ruhim tushib,
Kimlar koʻngling toʻq qildilar
Ming soʻqiring til topishib,
Bir uygʻogʻing yoʻq qildilar!»¹

Shoira H.Xudoyberdiyeva qalamiga mansub ushbu sheʼrda muhim ijtimoiy-maʼnaviy illatga kitobxon diqqati tortilgan: qalb koʻzlari ochilmagan, maʼnaviy «koʻrlar» birlashib, el-yurt dardida bedor chinakam fidoyilarni yoʻq qilishga chogʻlanishlarining oʻzi katta fojea! Zero, yaratuvchi, fidoyi Inson darajasini zabt etishi uchun, avvalo, inson oʻzligini yuksaltirmogʻi, xalq dardi bilan yonib yashaydigan, uygʻoq qalbli boʻlishi kerakki, bunga «qalb koʻzi ochilgan» buyuk

¹ Xudoyberdiyeva H. Saylanma. –T.: Sharq. 2001. 398-bet.

insonlargina erisha olganlar. Afsuski, bunday insonlar barmoq bilan sanarli. Iste'dodsiz, yaratuvchanlik hissidan yiroq, yurt manfaatlaridan o'z xohish-istaklariyu manfaatlarini ustun qo'yuvchi ma'naviy ojiz, qalb ko'zlari «ko'r» kimsalar esa ko'pchilikni tashkil etadi. Shoira ana shu hayot haqiqatiga ishora qilib, «Ming so'qiring til topishib, Bir uyg'og'ing yo'q qildilar», - deya salmoqli poetik fikrni qisqa, ammo yorqin ifoda qilish mahoratini namoyish qilmoqda.

Poetik nutqning o'ziga xos xususiyati – lakonizmdan foydalanib, e'tiborimizni liro-falsafiy fikr yo mushohada talab holatlarga, manzaralarga qaratish xususiyati shoira Zulfiya Mo'minovaning quyidagi she'rida ham ko'zga tashlanadi:

Ostonamda yig'layotir kuz,
Ostonamda gangiydi shamol.
Ostonamdan olislagan iz –
Ostonamda og'ir bir savol.
Men barini tushundim nogoh,
Xazonlarni gazga bosib jim.
Ostonamda men qilgan gunoh -
Yolvorishni bilmaganligim.¹

«Ostona» so'zining takror va takror qo'llanishi yangi ma'no tovlanishlariga ishora: yolg'izlikda kechirilgan umrning so'nggi «ostonasi» - kuz yig'lamoqda. Nega? Nima uchun? Shamol ham umrning «so'nggi ostonasi»gacha bu yolg'izlik, tark etilganlikning ma'nosini anglamay, umrini boshqa, begona eshiklar ostonasida o'tkazgan inson hayotining adog'i – ma'nisiz hayotning «so'nggi ostonasi» oldida inson qismatidan gangigan holatda...» hatto shamolning ham «uloqtirib», «uchirib», «ko'tarib, tashlashga» bu ostonadan (ya'ni makondan, uydan) hech nima topolmay, hayron holatda uni tark etayotganligi hayajonli va ta'sirchan tarzda tasvirlangan. Bu ostonadan bosh olib ketgan, olislagan «iz» qoldirgan «og'ir savol» ham hanuz javobsiz... Yolg'izlikda umr kechirgan «lirik qahramon»ning

² Mo'minova Z. Yonayotgan ayol. –T.: “Yozuvchi”, 1992. 89-bet.

xazonrezgi pallasidagi umr daraxtining qovjiragan xazonlarini yuziga bosib, o`z gunohlarining ma`no-mohiyatini tushungan holati quyidagicha tasvirlanadi:

«Ostonamda men qilgan gunoh - Yolvorishni bilmaganligim» - deydi. Xo`sh, yalinib-yolvorish nimaligini bilmagan lirik qahramonning «gunohi» nimada? Axir yetuk shaxslar hamisha mag`rur bo`lishgan, yolvorish binobarin, bosh eguvchanlik ular uchun yot xususiyat bo`lgan. Bobur Mirzo, Mirzo Ulug`bek shaxsiyatiga xos yetuklik alomatlari ham ayni shu jihatdan izohlanadi-ku?

Gap shundaki, she`rda shoira kibrga berilish, «man-manlik» natijasida o`zi va o`zgalar dardidan, tuyg`ularidan, samimiyatdan yiroqlashgan inson qismatini lakonistik syujet yaratish orqali ta`sirchan manzaralarda tasvirlamoqda. «Ostona» - makon ma`nosida xilma-xil ma`nolarni ifoda qilgan. Ostona – uy, xonadon ostonasi ma`nosida; Ostona - (umrning so`nggi pallasida ma`nosida) – bu o`tkinchi dunyoning oxiri, haqiqiy dunyoga o`tish ostonasi ma`nosida; ostona - (ko`ngil ostonasi nazarda tutilgan) qahramonning bo`m-bo`sh ko`nglining ostonasi ma`nosida; Ostonam – men muqaddas deb bilgan e`tiqod va aqidalar manzili, ostonasi ma`nosida. Lirik qahramon o`zini «buyuk» deb hisoblagan shu bois «buyuklar» hech kimga bosh egmaydi, hech qachon yalinmaydi va yolvormaydi, – degan aqidaga ishonib yashagan.

Ammo, «buyuklik» va «yagonalik» faqat Ollohga xos sifatki, bandasining gunohi buni chuqur anglab yetmaganligidadir. Mazkur badiiy-falsafiy umumlashmalarni shoira «ostona» so`zining serqatlam ma`no tovlanishlarini badiiy ifoda vositalariga mohirona «payvandlash» orqali badiiy kashf etgan.

2. Z.Mo`minova lirikasida «oq ilon», «yomon tush», kabi xalq og`zaki ijodiga xos ramzlar; «tushlarning oqishi», «aql-u xush oqig`i» kabi mubolag`ali tasvirlar, poetik ko`chimlar, jarangli iboralar, tasviriy vositalardan o`z o`rnida foydalanish san`ati namunalarini ko`plab uchratamiz. Bu xususiyatlar shoira she`rlaridan anglashiluvchi poetik tafakkur tarzining serohangliligi, ma`no tovlanishlari, obrazlilik va poetik nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanish natijasi ekanligi aniq. Bu hozirgi o`zbek she`riyatiga xos estetik tamoyildir.

Hozirgi o`zbek she'riyatida A.Oripov, X.Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Z.Mo`minova, Rauf Parfi, Qutlibeka, Sirojiddin Sayyid, A.Qutbiddin, Faxriyor kabi shoir va shoirlar ijodida poetik nutq shakllaridan unumli foydalanib, o`z ichki dunyosini o`z tili – «men» orqali batafsil va hayajonli tarzda ochib berish tendensiyasi ko`zga tashlanayotir. Bunday monolog she`rlarda har bir ijodkorning inson, olam, jamiyat, imon-e'tiqod borasidagi o`ziga xos qarashlari badiiy aksini topgan. Mana bir misol:

Dunyo kambag`alni kamsitib, g`ajib
Tag`in boyitarkan boyroqlarini.
Ruhim olib qo`yar boshimdan tojni
Ruhim ko`taradi bayroqlarini!
Qaydagi yetimni yetim tishlaydi,
Dunyo qantarmasa kaj itlarini.
Ruhim yuragimga qattiq mushtlaydi,
Ruhim kiya boshlar sovutlarini¹.

Shoira bunday murojaat monolog orqali dunyoda adolatsizlik hukm surar ekan, «men» qalbim da'vatiga ko`ra kurashga otlanaveraman, - degan salmoqli badiiy umumlashmani ifoda etmoqda. Shoir Usmon Azimov esa qator she`rlarida tasviriy monolog vositasida o`z ruhiyatini taftish etib, o`z dunyosidagi iztiroblar mohiyatini ta'sirchan manzaralar tasviri orqali tasvirlash tendensiyasini namoyon etmoqda. Mana bir misol:

Qo`llarimni qiydi zanjir. Ezg`iladi boshimni –
Tog`day qullik yerga egdi - bo`ynimdan torta-torta
Men haq bildim bu dunyoning katta-kichik toshini,
Men toshlarga yuzim tutdim yoshimni arta-arta.
Bo`g`izlarim achishdi. Ha, o`pkalarim achishdi.
O`pkam to`ldi odamlarning «Oh»lari to`la tunga.
«Havo» dedim, - tomog`imga qaro qurum yopishdi,

¹ X.Xudoyberdiyeva. Saylanma. –T.: Sharq, 2000. 440-bet.

Necha yilki, men havosiz yashayapman butunlay.
Sovuq qotdim. Izg`irinda chirsilladi so`ngagim,
Tomirlarim – ayozlarda muzlagan qiyoyq hanuz.
Olov so`rab, gulxanlarni bo`zlab kezdi yuragim,
Yong`inlardan yonib chiqib, quchoqladi meni muz.
Men – suvsadim. Men – qaqradim. Men – xas bo`ldim.

Quridim...

Lirik qahramonning erksizlikdagi iztirobli holati, erk suviga tashna daraxt kabi qaqrab qurishi nihoyatda ta'sirchan o`xshatishlar, jonlantirish, mubolag`a kabi tasviriy vositalar, o`z holatini sharhlash usuli orqali ifodalangan. «Men»ning fojiasi erksizligi - «tog`day qullik» ayni chog`da tosh yuraklarga yuz tutib, dunyoning «katta-kichik toshlarini» haq deb bilganida, ularga ishonch ko`zi bilan qarab, «toshlarga yuz burganida». Bu o`rinda shoir umumlashma obraz «toshlar» vositasida qalbi ezgu tilak va istaklardan yiroq, hissiz, diydasi «tosh» odamlarni nazarda tutayotir. Bunday odamlar El dardiga dardkash-u, tilaklariga tilakdosh bo`la olmasligini kech anglagan lirik qahramon odamlarning «oh»lari to`la tunda el-u yurt iztiroblariga hamohang alamli ko`z yoshlarini to`kmoqda...

So`z san`atining janrlarida rang bilan bog`liq ramziy obrazlar ko`plab uchraydi. Xalq og`zaki ijodi namunalaridan tortib Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg`ariy, Ahmad Yassaviy asarlarida ham lavhalar, tabiat tasvirlari, ilgari surilgan falsafiy, axloqiy-didaktik fikrlar rang ramzlari orqali berilganligi ma'lum. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida majoziy ranglar timsollarga ko`chirilib komillik bosqichlarini zabt etayotgan inson dunyosini tasvirlashga xizmat qilganki, ana shu xususiyatlar mustaqillik davri o`zbek she'riyatida o`zgacha tovlanishlar va ma'nolar kasb etmoqda.

Olamni va undagi turfa holatlar, hayot murakkabliklarini qalbida kechirayotgan inson dunyosi ham kamalakrang. Butun hayot zalvorini o`z tafakkuriga sig`dirishga urinayotgan zamondoshimizning kechinmalari, o`y-hayollari ham chegara bilmas darajada rang-barang. Ana shu olam va inson

dunyo­sidagi mushtaraklikni badiiy soʻz poetik ranglar orqali ifodalash imkonini beradiki, bunday ramziylashtirish shoirga qisqa ohanglar va sanoqli ranglarda inson timsolini jonlantirishga qodir moʻyqalam tutqazadi. Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Bilol xabash» sheʼrida qora rang obrazning ruhiyatini yoritib turgan eʼtiqod nuriga uygʻunlashib oqlikka koʻmilsa, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim sheʼrlarida uchrovchi oq rang begʻuborlik, samimiylik, yorugʻlik, ezgulik maʼnolarini ifoda etadi. Halima Xudoyberdiyeva sheʼrlarida oq rang bilan yondosh sariq va qizil ranglar uchraydi. Shoira judolik, ayriliq, tushkunlik, aldanish holatlarini sariq ranglar vositasida jonlantirsa, qizil rang orqali yovuzlik, fojia­viylik, zoʻravonlik, istibdod ramzlarini yaratgan. Inson qadri bukilgan, erki toptalgan mustamlakachilik davrida hatto nafas ham qizil, kishan ham qizil, tikan ham qizil. Shoirlar favqulodda yaratilgan ifodalar orqali ramziy obrazlarni kitobxon koʻz oʻngida jonlantirishga erishib, poetik gʻoyani toʻlaqonli anglatishga muvaffaq boʻlayotirlarki, bu xususiyat hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga xos tendensiya sifatida tadqiq etilishi lozim. Poklik, nurday bokiralik, illatlardan forigʻlik, imon-eʼtiqodlilik Eshqobil Shukurning «Yashil oʻlim» sheʼrida asosiy badiiy unsur – ramziy obraz orqali ifoda etilgan. Bu xususiyatlar oʻzbek sheʼriyatida rang ramzlar vositasida inson dunyosini, olam xossalarini oʻziga xos tarzda anglash va tasvirlash usuli yuzaga kelganligini koʻrsatadi.

Bir qator oʻzbek shoirlari qatorida isteʼdodli shoir Bahrom Roʻzimuhammad ijodida ham ranglarning ramziy qoʻllanish usuli oʻziga xos poetik timsollar yaratishga xizmat qilganligini kuzatish mumkin.

Inson tabiatga talpinib yashaydi. Uning bagʻrida oʻzini qushday yengil, dardlaridan forigʻ his etadi. Tabiat goʻzalliklariga boqib bahra oladi va oʻzini uning bir boʻlagi deb biladi. Ammo ona tabiatni asrash insoniyatni kulfatlardan asrash ekanini hamisha ham yodda saqlamaydi.

Vaqtiki yer tars yorilganida

Havoda uchib millionlab yer boʻlaklari

Mumdek erib bitsa

Tutunga aylansa yer
Vaqtiki sirg`alsa yulduzlar
Uch quyosh charx ursa ko`kda
Va uch quyoshga juft bo`lsa uch oy
Tun va kunduz qorishsa bir – biriga
Vaqtiki borliq o`z ma`nosini yo`qotsa butkul...

Tasavvur qiling, sarhadsiz falak bo`m-bo`sh bo`lib qolsa, tutunga aylansa yer? Shoir beparvolik, bemaqsad yashash, gunohlardan yuraklar ezilmas darajaga kelsa, insonlar borliqni talon- taroj qilib bo`lishsa, tugatishsa, hatto, yanchib bir-birovlarin, hayhot, bu holga chidash berolmay, yer tars yorilsa, mumday erib bitsa borliq!- deya xitob qilmoqda.

Yorug`lik o`rnini zulmat-u qorong`ulik egallasa, borliq ham o`z ma`nosini butkul yo`qotsa, demak, kurrimiz ham koinotda chilparchin bo`ladi! Shoir ana shu falokatni ko`z oldimizda quyuyq qora ranglar orqali jonlantiradi, insonlar qalbining rangsizligi, bo`shliqqa aylanib qolganligi olamning bo`m-bo`shligi bilan uyg`un tasvirlanadi.

Ana o`rik guli
xo`rozqandga o`xshab muzladi
yashillik sovqotib turibdi
dir- dir
sochingizni o`ynaydi shamol
shundan boshqa ishi yo`q kabi
jiddiy...

Go`zallikning muzlashi, yashillikning dir-dir sovqotib turishi ezgulikning omonatligidan darak bermaydimi? Farzandlarimiz qalbida nish urishi kerak bo`lgan insoniy sifatlar, latif xulqlar kurtak yozayotgan daraxt yaproqlari kabi sovqotib tursa, bu umrimizning, borlig`imizning omonatligidan, hayotning g`animatligidan darak bermaydimi?

Demak, o`zbek she`riyatida rang bilan bog`liq ramziy obrazlarni shartli ravishda quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Insoniy sevgi-muhabbat mavzuidagi ramzlar.
2. Insoniy fazilatlarni ulug`lashga, mehr-oqibat, ezgulikni qadrlashga undash mavzuidagi ramzlar.
3. Ijtimoiy – siyosiy mavzudagi ramzlar.

Bulardan tashqari, hozirgi o`zbek she`riyatida «rang-ramz», «rang-obraz», «ibora-obraz», maqollar, hikmatli so`zlar orqali ramzlar yaratish xususiyatlari ko`zga tashlanmoqda. Bu xususiyat inson bilan tabiatning aloqadorligi, ayni paytda, ruhiyatimizning ona tabiatga uyg`unligi hosilasidir. Ranglarni ramzlashtirish hozirgi o`zbek adabiyotida o`ziga xos an`ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda.

Hozirgi adabiy jarayon xususiyatlarini tadqiq etgan o`zbek adabiyotshunoslari va tanqidchilari mustaqillik yillarida yuz bergan muhim jihatni ta`kidlab, badiiy ijodga yangicha munosabatning qaror topayotganligi; ijodkorga yaratuvchi shaxs, san`atkor sifatida qaralib, badiiy asarlarga birinchi galda badiiyat talablari nuqtai-nazaridan baho berishga harakat qilinayotgani, «g`oyaviylik»ni emas, ijodkorning badiiy tafakkur tarzini o`rganish yetakchi tamoyilga aylanayotganini ijobiy hodisa sifatida ta`kidlayotganliklari quvonarli holdir.¹

Ijodkor badiiy tafakkuri Olloh in`om etgan ilohiy mo`jiza – iste`dod nuriga yo`g`rilgan bo`lsa, qanchadan qancha milliy boyliklarni bunyod etadi. Bu haqda so`z yuritgan I. G`afurov: «Iste`dod - milliy boylik. U necha yuzlab, minglab boyliklarni bunyod etadi», - deganida tamomila haq edi. Aynan ijodkor badiiy tafakkurining ilohiy va dunyoviy mazmunlari uyg`unligidan yuzaga keluvchi o`ziga xos uslubda ham shu ikki jihat ko`zga tashlanadi: iste`dod – mahoratni yuzaga chiqaruvchi omil bo`lsa, uslub-ijodkor tafakkurining badiiy til orqali dunyoviy ma`no va mazmun kasb etishidir.

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma`naviyat. 2000.

² Xudoyberganov N. Mehr-u muhabbat yo`llarida. –T.: Yozuvchi. 2003.

Demak, ijodkor shaxsida ana shu ikki jihat uyg'unlashib, o'ziga xos uslubning namoyon bo'lishida asos vazifasini o'taydi. Ayni chog'da, ijodkor uslubi va badiiy mahorati vositasida inson dunyosining sirli, sehrli qatlamlari, tuyg'ularining shiddati, his-hayajonlarining ma'no tovlanishlari, tug'yonlarining zarbi ifoda qilinadi, tasvirlanadi. Kitobxon yana o'sha ilohiy mo'jiza-iste'dod qudrati ila o'zga insonlar ruhiyatini his qiladi, ular dunyosiga kirib boradi, ularni xuddi hayotdagidek jonli insonlar kabi tasavvur etadi va tushunadi, hamdardga aylanadi. Badiiy obrazlar qiyofasida har safar obrazlarning yangi, sirli va sehrli, betakror ilohiy dunyosi namoyon bo'ladi. Yaratilayotgan ana shu hayotiy qahramonlarni zamon va istiqlool davri adabiyoti talablari, badiiyat mezoni asosida har taraflama chuqur o'rganish hozirgi adabiy jarayonning dolzarb muammolaridan biridir.

Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillaridan yana biriga e'tiborni qaratib, f.f.d., professor H.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: «Totalitar tuzum va uning mafkurasi milliy respublikalar xalqlarini tarixidan, madaniyati ildizlaridan mahrum etibgina qolmay, diniy an'analari va urf-odatlarini ham payhon qilib tashladi. Diniy madaniyat o'rniga bu xalqlarga berilgan markchalenincha ta'limot esa ular imonini salomat olib qololmadi. So'nggi yillarda dinga erkinlik berilishi, islom ta'limotiga oid ilmiy-ommabop asarlarning paydo bo'lishi va boshqa tadbirlar natijasida o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi. Bu she'rlar «Qur'on» surasidagi oyatlarda va hadislardagi kishini to'g'ri yo'lga solishga irshod qilingan fikrlar asosida yozilgani uchun kishi imonini mustahkamlashga juda qo'l kelyapti. Chunki imoni mustahkam odam har qanday yomonlikdan va insoniy illatlardan saqlanadi, hech kimga zulm qilmaydi»¹.

Olimning fikrlariga umuman qo'shilgan holda, biz hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillardan yana biri shoirlarning poetik nutqning xitob, murojaat kabi shakllaridan, so'z takrori, ritorik so'roq kabi unsurlardan foydalanib, olamni uning bir bo'lagi bo'lmish inson dunyosini poklash orqali munavvar etish haqidagi dunyo

¹ Karimov G'. Istiqlool davri she'riyati. –T.: Zarqalam, 2005. 20-bet.

olimlari, faylasuf-u shoirlari qarashlariga hamohanglikda yaratilayotgan poetik g`oyalari, betakror tashbehlariga yuklangan salmoqli fikr va tuyg`ulardan anglashilishini ta`kidlamoqchimiz. Zero, bugungi kunda insoniyatning qiblaga yuz tutayotganligini dunyo tan olmoqda¹. Xususan, shoir Usmon Azim olam sirlarini anglashga nechollik urinmasin «sirlar tugunini yecha olmaganligini» e`tirof etadi.

Shoir ayni holat sababini olamning bor sir-u sinoatlarini o`z ko`ngil olamida jilvalantirgan inson qalbi sirligicha qolganligida, deb hisoblaydi:

«Tangrim, faqat kechir, bandalaringga
Bir qatra ozodlik bermaganim-chun.
Qon yutgan ko`rimlar uchun kechirgin
Ko`zimning yoshlari uchun kechirgin.
Dunyoning toshligi uchun kechirgin.
Kechirgin - ko`yingda adashganimni,
Kechirgin - ko`yingda tinmaganim-chun,
Kechirgin – erk uchun talashganimni,
Va erk senligingni bilmaganim-chun»².

Insonni poklash, olamni tozartirish, oq va qora ranglar zamiridagi ma`nolar: ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi azaliy ziddiyatni ko`tarib, uloqtirib tashlashga qodir kuch bormi? Bugun insoniyat ongini zabt etgan savol alomatiga qanday ma`nolar singishgan? Muammo yechimi qanday? Olamni inson bolasi yaratgan yovuzliklardan saqlab qolish mumkinmi? Ana shu savolga javob izlab, «oxir zamon» alomati-yu zalolatlari haqida, gunohlarga burkangan kurrani shoir Bahrom Ro`zimuhammad quyidagicha tasvirlaydi:

«...ayni paytda taftish kuchi bois
o`z o`qidan chiqib ketdi yer shari
chiqib ketdi quyosh sistemasidan.

¹ Usmon Azim. Saylanma. "Sharq" nashriyat matbaa konserni. –T.: 1995. 405-bet.

² Bahrom Ro`zimuhammad. Soyalar suhbat. She`rlar to`plami. –T.: Zarqalam nashriyoti. 2006. Barcha ko`chirmalar shu to`plamdan olindi.

ayni paytda tong ila tun
ola bulla shamoyilga kirdi
zulmda o`zgartirib rangu tusini

oq olma pishayotgan chog`
qorbo`ron o`ynab yurdi bolalar.
yozga qo`shildi qishning uch kuni.

ayni paytda tug`ilgan go`dakning
soch-soqoli oqardi birdan
onasini emdi munkaygan chol.

ayni paytda quyosh nurini
qayga sochishni bilmay turdi-da
Kuydirib yubordi oyni daf`atan...»¹.

Nega? Nima uchun? Bu savollarga shoir «Qarg`algan» nomli she`ri orqali javob qaytargan:

«Sen ulug` ibtidodan nariroqda bir qadam bosding
Shu bois Allohning qahri keldi
Payg`ambar qarg`adi seni
Shaytoni laindan-da battarroq bo`lding
biroq sening ruhiyatingni to`ldirgan zavq-u shavq
ikki dunyoda ham yo`q faqat senda bor
ey, abadiy yig`i, ey abadiy kulgu, ey abadiy jimlik».

Shoir fikricha, sirli-sehrli dunyo sarhadlaridan-da nariroqqa, bu dunyo chegarasidan tashqariga «qarashga», idroki, o`y-xayollari ila u tomonga «bir qadam tashlashga» botingan insonga shu gunohi uchun qarg`ish yopishgan. Bu shakkoklik evaziga shoir qalb iztirobi-yu bezovta ruhning mangu azobiga duchor

¹ Bahrom Ro`zimuhammad. Soyalar suhbatlari. She`rlar. –T.: Zarqalam nashriyoti. 2006. 9-10-betlar.

etilgan. Ammo insoniyat dardini kuylab yig`lash, ezgulik nurlariga chulg`angan olam go`zalliklari-yu odam kulgusidan zavqlanish faqat shoirlarga nasib etmishdir. Ayni chog`da, o`z ojizligini tan olib, Oллоh irodasiga bosh egib, abadiy «jimlik» sari yuz burgan inson sukuti ham olam-olam ma`nolarni ifoda etadi. Bu xususiyat realistik tasvir uslubi bag`rida yuzaga kelgan «yangilik» sifatida e`tirof etilayotgan «o`zbek modern she`riyati» alohida estetik tamoyil ekanligini asoslaydi. Modern yo`nalishidagi she`rlar ijodkor-u kitobxonning XXI asrdagi tabiiy ma`naviy-ruhiy ehtiyojlariga monand yuzaga keldi. Bunday she`rlar inson shaxsi va hayotini, uning ko`ngil olamini ijodkorning tasavvurlar olami orqali kuzatish orqali har ikki olam uyg`unligi yoki o`zgachaligini anglash mumkin bo`lgan ma`nolarini tasavvur voqeligiga aylantirib (his-tuyg`ular va idrok birligi) badiiy talqin qilish natijasidir. Ijodkorlarning bunday she`rlari bir qarashda milliy she`riyatimiz uchun noan`naviydek tuyuladi. Hijo, turoq va qofiyadan uzoq xalq jonli tiliga yaqin sarbast she`rlarni bir o`qishda tushunish qiyin, ammo har bir so`z, har bir satr muayyan obrazli ifodaga, ramziy ma`noga va ichki ohangga egaki, bu xususiyatlar shoir mahorati orqali betakror poetik manzaralar va badiiy umumlashmalar yaratilishiga asos bo`lgan.

I.2. XX asr o`zbek she`riyatida poetik obraz va uning tadriji. Obraz juda keng tushuncha. U olam – obyektiv borliq va ijodkor – subyektiv borliqning o`zaro «to`qnashuvi»dan paydo bo`ladi. Obraz – bu voqelikdan ko`chirilgan nusxa emas. Unda ijodkorning individual yondashuvi aks etadi. Agar mana shu yondashuv bo`lmaganda edi, badiiy adabiyotdagi obraz tushunchasi o`zining ko`p qatlamli mohiyatini yo`qotgan bo`lardi. Chunki aynan obrazga yuklangan individuallik alal-oqibatda uning jozibasini oshiradi, ya`ni obrazni turli-tuman nuqtayi nazardan turib baholash, talqin etish imkonini beradi.

Obrazning kuchi, jozibasi yana shundaki, u shoir ifodalamoqchi bo`lgan fikr, his-tuyg`u va kechinmani ma`no jihatidan tovlantirib beradi. Ya`ni o`z kayfiyatini ayniqsa, ramziy obraz orqali aks ettirgan shoir shu narsaga erishadiki, endi uni har

o`quvchi o`ziga tanish manzaralarda tushunadi. U yaratgan obrazlar muxlislar qalbida yangidan inkishof etiladi. Shu ma'noda har bir o`quvchining yuragida o`z «Go`zal»i, (Cho`lpon), o`z «Na`matag»i (Oybek) va o`z «Tilla baliqcha»si (A.Oripov) yashaydi. Demak, shoir obraz orqali fikrlay boshlaganda fikrini oxirigacha aytmaydi. Chunki bu ishni o`quvchining o`zi bajaradi. Shu tarzda san`atning, she'riyatning estetik ta'sir maydoni kengayib boradi.

60-yillar oxiri va 70-yillarga kelib davr yana o`zgarishga yuz burdi. Chunki Stalin vafotidan so`ng mamlakatda ko`z ochgan iliqlik kayfiyati sekin-asta o`z mevasini bera boshlagandi. Natijada poetik obrazning zimmasiga yuklanadigan badiiy yuk ham yangilandi. Dastlab rus adabiyotida nish urgan erkin tafakkurning kurtaklari o`zbek shoirlarining she'rlarida ham ko`rina boshladi. Shoirlar o`z e'tiborini sotsialistik qurilishlarning dabdabasidan olib, ko`ngilga qaratdilar, o`zini o`zi taftish eta boshladilar. Insonning baxti va baxtsizligi haqida o`yladi. R. Parfi, A. Oripov, E. Vohidov kabi shoirlarning she'rlaridagi eng yashovchan obrazlar (masalan, R. Parfida «Bir qushcha derazam yonida» she'ridagi qushcha obrazi) ana shu zayilda dunyoga keldi. 70-yillarning o`rtalaridan boshlab esa tag`in bir yangi avlod she'riyatida o`zgacha poetik obrazlar kezib qoldi: bu yerdagi lirik qahramonlar jamiyatni va insonni tuzatishga astoydil bel bog`lagan adolatparvar, vatanparvarlar obrazlari bo`lib maydonga chiqdilar. Bu holni Sh. Rahmon, X. Davron, U. Azim kabi shoirlarning she'rlari misolida kuzatish mumkin.

Jonim-jigarimsan,
Sen-da odamsan,
Loaqal ko`zingda bir yosh ko`rsaydim,
Loaqal qovushib qolgan qo`lingda
Yovlarga atalgan bir tosh ko`rsaydim.

(Sh. Rahmon)

She'ning 1983-yilda, ya'ni yurtimiz hali istiqlolga erishmagan bir tarixiy pallada yozilganini eslasak, masalaning mohiyati teranroq anglashiladi. She'rda

vatan uchun kuyib yonayotgan obraz mavjud. Bu obraz millatparvar, vatanparvar, ozodlik yo`lida jonini berishga tayyor qahramon bo`lib gavdalanadi.

Bo`linib boryapman ming bir bo`lakka,

Xotiram yo`qlikka qorishib ketdi.

Selday oqib ketdi ko`ksimdan yurak,

Faqat xayol toshday qotdi boshimda.

Chinorning tagida bo`linib yotibman,

Shunda bir so`z bargday labimga qo`nar:

«Vatan» deyman, takror aytamen «Vatan»...

Birlasha boshlaydi yurak, aql, tan...

(U. Azim).

Hayot so`qmoqlarida bo`linib borayotgan insonni tiklashga, uning parchalarini qayta birlashtirishga qodir yagona kuch – shoir nazarida – Vatandir. Mana shu tarzda U. Azim, X. Davron va Sh. Rahmonlar she`riyatida Vatan bir ulkan poetik obraz sifatida bo`y ko`rsatadi. Bu obraz she`rga ko`chib yashaydi va takomillashadi.

Har bir tarixiy davr o`zining muammolari bilan yashaydi. Bunday yashash davr kayfiyatini belgilaydi hamda ayni kayfiyatni o`zida mujassam etadi, uni aks ettiradi. Demak, she`riyatdagi obrazlar ham o`z-o`zidan shu davr kayfiyatining o`ziga xos modellari sifatida dunyoga keladi. Biz poetik obraz mohiyatiga kirib borar ekanmiz, o`z-o`zidan mazkur obrazni yaratgan davr kayfiyati bilan ham tanishib boramiz. Yana har bir davr muayyan poetik obrazning tabiatidan o`ziga yaqin va tanish bo`lgan nimalarnidir topib oladi. Bu esa obrazning umrboqiyiligini ta`min etadigan omillardan sanaladi. Ko`rinadiki, obraz bu – umumlashma maket. U shunday bir tramplinki, u yerdan o`quvchi o`z imkoniga – ma`naviy estetik tayyorgarligiga qarab, istagan tomoniga uchib ketishi mumkin. (Albatta, obrazning mohiyati va tabiati bergan imkon doirasida).

She'riyatda (umuman, san'at sohasida) yaratilgan obrazlar mohiyatini tadqiq etish shoir (san'atkor)ning voqelik bilan munosabatiga oydinlik kiritadi. V. Xalizev obrazning ikki xilini ajratadi: anglam fenomeni sifatidagi obraz va tasavvurning hissiy (ko'rish va eshitish vositasida) gavdalanishi orqali hosil bo'luvchi obraz. A.Potebnya esa «Fikr va til» nomli tadqiqotida obrazni «tasavvurning qayta ishlanishi» deb ataydi. V. Xalizev ayni «obraz»ni san'at nazariyasi uchun eng o'rinli ekanini qayd etadi. Albatta, obraz turli xil bo'ladi: uning ilmiy-ilyustrativ, faktik va badiiy ko'rinishlari haqida ko'p yozilgan. Shulardan badiiy obraz ayrim hollarda o'ylab topilgan bo'lishi ham mumkin. Uning aynan o'xshashi – ekvivalenti real hayotda bo'lishi shart emas. Ammo bu – badiiy obraz hayotdan tamoman uzilgan bo'lishi mumkin, degani emas. Har qancha o'ylab topilgan bo'lmasin, o'zining mohiyat-e'tibori bilan kishilik turmushining, uning ko'nglining qaysi bir holatlari in'ikosi sifatida dunyoga kelgani bois, bunday obrazlar ham hayot bilan chambarchas bog'langan sanaladi. Hatto badiiy obrazning mohiyati romantik bo'lsa ham, baribir, u insoniyatning xayol va orzularini aks ettirganiga ko'ra real zaminga ega hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda obraz tushunchasida muayyan o'zgarishlar yuz bergani to'g'risida yozilyapti. Chunonchi, semiotika fanining asosiy tushunchasi – belgi ayrim o'rinlarda obrazga teng ma'noda qo'llana boshlangani haqida ilmiy qarashlar ilgari surilmoqda. Lekin chuqurroq mushohada etilsa, belgi obraz zimmasiga yuklangan vazifani to'la-to'kis bajara olmasligi ayon bo'ladi. «Belgi obraz degan an'anaviy tushunchani bekor qilmadi, lekin unga o'zga – yanayam keng ma'no kontekstini bag'ishladi» deb yozadi Ye. Xalizev. Ushbu nazariy fikrni inkor qilmagan holda, aytish joizki, belgi obrazga eltuvchi yo'ldagi ko'rsatkich ishoralaridir. Obraz ana shunday belgilarning muayyan maqsad sari yo'naltirilgan tizimiga teng. Bu degani shuki, belgi har doim ham obrazga teng emas. Ayrim hollardagina muayyan belgi obraz darajasiga chiqishi mumkin. Aslida obraz belgiga nisbatan ancha keng va salmoqli tushuncha. Mana shuning uchun ham

shoir yaratgan obrazlar mazmun-mohiyatini tekshirish orqali uning butun ijodi mohiyatini anglash mumkin bo`ladi. Uning ijodida belgilar juda ko`p uchrashi mumkin, biroq haqiqiy obrazlarning butun boshli galareyasiga duch kelish qiyinroq. Ko`rinadiki, XX asr o`zbek she`riyati tong otarida millat, yurt ozodligi uchun, uning ma`rifatli bo`lishi uchun jonini ham tikishga tayyor qahramon obrazi mavjud edi (Cho`lpon, Fitrat she`rlarida). Keyin esa bu obraz istar-istamas “qizil imperiya”ni “madh etish”ga tortilib ketdi.(U. Nosir, H. Olimjon, G`ayratiy, G`.G`ulom va qisman Oybek she`riyatida). Ikkinchi jahon urushi yillarida bo`lsa, u «qo`lingga qurol ol» murojaatiga amal qilib, fashistlarga qarshi kurashga safarbar etildi. Urushdan keyin va to 60-yillarning o`rtalariga qadar esa she`riyatdagi obraz go`yo nafas olmay qo`ydi. Uning bor-yo`qligi bilinmay qoldi. Chunki ta`kidlanganidek, har bir davr obrazga muayyan g`oyaviy, badiiy, estetik va ma`naviy yuk yuklaydi. Shundan kelib chiqadigan bo`lsak, urushdan keyingi 15-20 yillik muddat mamlakatimizning siyosiy-iqtisodiy tarixiga tiklanish degan nom ostida kirgan bo`lsa ham ma`naviy hayotimizda chinakam turg`unlik davri bo`ldi. Bu esa adabiyotga o`z ta`sirini o`tkazmay qo`ymadi. Chunki obraz muallif va tashqi dunyo o`rtasidagi o`ziga xos aloqa vositasidir. Obraz obyektiv borliq va shoir – subyekt o`rtasida barpo etilgan eng ishonchli ko`prik. Hassos o`quvchi bu ko`prik orqali bir vaqtning o`zida ham shoirning badiiy estetik olamiga, ham u yashagan davrning g`oyaviy-ma`naviy sarhadlariga sayohat qilishi mumkin. Shunday ekan, obraz bu – obyekt – real borliq bilan subyekt – muallif uchrashgan lahzada o`rtada paydo bo`lgan jamiki muloqotlarning ong va qalbdagi suvratlariga teng. Bunday obraz har bir ijodkor uchun uning o`zigagina tegishli muloqot sanaladi.

Poetik obraz o`z-o`zicha yashamaydi. U badiiy g`oya va ko`pdan ko`p badiiy detallar bilan birgalikda muayyan uzilmas halqani tashkil etadi. Ayni chog`da ta`kidlab aytish joizki, ba`zi hollarda badiiy obraz ma`lum bir she`rni tutib

turgan badiiy komponentlarning jamlanmasi – yagona suvrati tarzida ham namoyon bo`lishi mumkin.

Shoir poetik obraz orqali tushuncha, fikr va qarashlar maketini yaratishi mumkin. Bunday maket o`zining ichki mazmuniga ko`ra universal bo`ladi. Shu ma`nodaki, u o`quvchining dunyoqarashi, adabiy tayyorgarligi, maqsadi va boshqasiga qarab turib turli-tuman talqinlar eshigini ochib boraveradi. Bas, shunday ekan, ishonch bilan aytish mumkin: ijodkorlar badiiy obraz orqali fikrlay boshlashi uning chinakam san`at olamiga qadam qo`yganidan dalolat beradi.

Demak, 60-yillarning o`rtalarigacha davom etgan ma`naviy turg`unlikdan so`ng o`zbek she`riyatida yangi sahifa ochildi. Chunki bu ishni yangilangan poetik tafakkurning mevasi – yangi obraz ado etgan edi. 60- va 70-yillarning avvalida she`riyat maydoniga kirib kelgan poetik obraz avvalgilardan yaqqol ajralib turardi. U o`z vatanini, o`z ona tilini, o`z munis xalqini, uning qadriyatlarini jon dilidan sevishini aytishdan cho`chimaydigan qahramon edi. U o`z nigohini sobiq imperiyaning madhiyabozlik, dabdabasidan olib, o`zining va yonidagi insonning ko`ngliga qaratgandi. Ko`ngilni kuyladi, uning dardlarini tarannum etishni she`riyatning bosh omili deb bildi. 70- va 80-yillarda esa she`riyatda yana bir obraz paydo bo`ldi. U murosasiz chiqdi. Uning adolatparvarligi va vatanparvarligi 60-yillar avlodinikidan o`tib tushdi. Ularning urinishlari ijtimoiy dardni o`zining, shoirning dardiga aylantirgan Cho`lponning chirpanishlarini yodga solardi. ya`ni bu avlodda ham xuddi Cho`lpon-u Fitratda bo`lgani kabi shoirlik va fuqarolik burchlari birlashib ketdi. Natijada she`riyatda jangovar, adolatparvar, vatanparvar, elparvar qahramonning poetik obrazi dunyoga keldi. Bu narsa ma`lum ma`noda ijtimoiy publitsistikani, yalang`och g`oyaparastlikni ham yuzaga chiqardi.

90-yillarga kelib, ya`ni yurtimiz istiqloлга muyassar bo`lgandan keyin esa she`riyat zimmasidagi ayrim ijtimoiy buyurtmalardan xolos bo`lib, nazmning azaliy tamoyillariga yuz burdi. Demak, har qanday davr she`riyatini olib o`rganib chiqsak, shu narsaning shohidi bo`lamizki, uning o`ziga xos uslubi, ifoda yo`sini,

ohangi, g`oyalari tagzaminida o`z davrining siyosiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ruhoniy evrilishlari yotadi. Bu evrilishlar shoir ijodida betakror poetik obrazlarda aks ettirilsagina she`rning zamonlar sinovidan o`tishiga umid qilinadi.

II BOB. BUGUNGI O`ZBEK SHE`RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR.

II.1. She`riyatda ramziylik. Ramz (simvol) – grekcha “syumbol”so`zidan olingan bo`lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a`zolarining bir-birini tanib olish uchun qo`llanilgan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda ramz keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo`lib, aniq tasavvur etish qiyin bo`lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko`z oldida yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi.¹ Umumta`lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklarida ramz va ramziy obrazlilikka quyidagicha nazariy ma`lumot beriladi: “Ramz-ko`chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O`quvchi anglashi murakkabroq bo`lgan mavhum axloqiy sifatning shu sifatlarga ko`proq ega bo`lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga ramz deyiladi. Ramz adabiyotshunoslik fanida timsol yoki simvol atamaları bilan ham yuritiladi. O`zbek adabiyotida may- hayot ramzi, chumoli- mehnatsevarlik, gul- ma`shuqa ramzi, burgunt-mag`rurlik ramzi va h.k. tarzida qadimdan qo`llanib kelingan.”²

Mustaqillik she`riyatidagi o`ziga xoslik va ifoda yo`sinining bir-birini takrorlamasligi, she`riyatda ramziy va shakliy izlanishlarning samarasidir. Adabiyotshunos olim Yashar Qosim “Yangi o`zbek lirikasida ramzlar” nomli maqolasida shoir Abdulla Oripov ijodidagi ramziy obrazlarni: bulut, mitti yulduz, burgut, giyoh, buloq, dorboz orqali tahlilga tortadi.³

Bugungi o`zbek she`riyatining an`anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va paradokslar,

¹ Adabiyot nazariyasi. 1-jild. Toshkent, 1978 yil, 59-bet

² O`zbek adabiyoti (7-sinf uchun darslik-majmua)-Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti, 1997-yil, 112-bet.

³ Yashar Qosim. Yangi o`zbek lirikasida ramzlar // O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 5/1998-yil, 3-8-betlar

eng muhimi, betakror serohang, serma'no ifodalar bilan kitobxonni o`ylantiradi. Fikrning ixcham, lo`nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o`zbek she'riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir.

Badiiy adabiyotda obraz asosiy maqsad, fikr va g`oyani ifoda etuvchi vosita. "Obraz - poeziyaning na vaqt, na poetik o`zgarishlar xavf sola oladigan eng ustuvor, balki yagona elementi"⁴ ekanli ilmiy-nazariy adabiyotlarda ko`rsatiladi.

Badiiy obrazni shakllantiruvchi muhim omillardan biri obrazlilik hisoblanadi"⁵. Obrazli ifoda, obrazli nutq deganda, odatda, tor ma`nodagi tasviriy vosita, ibora va ko`chimlarga boy nutq tushuniladi. Keng ma`noda obrazlilik davr, voqelik, manzaralar, ruhiyat tasvirini tasavvurda jonlantirish hodisasidir. San`atning ba`zi turlarida tasvir obyektlari cheklangan. "Ammo badiiy adabiyotda hayotning barcha tomonlarini jonli obrazlarda aks ettirish mumkin. Buning boisi adabiyotning tasvirlash quroli so`z mulkining o`zidan iborat ekanligidir"⁶.

Obrazlilik - so`z orqali tasvir yaratish san`ati. Obrazli ifoda qahramonlar, voqealarni o`quvchi ko`z oldida gavdalantirib, ularning ruhiy kechinmalarini o`z boshidan kechirgandek taassurot uyg`otadi. Kuchli obrazlilikka yo`g`rilgan asar tashbeh-u istioralarsiz yaratilganda ham badiiy qimmatini yo`qotmaydi.

She'riyatda shoir oniy, bir lahzali kechinmalar orqali yuzaga keladigan butun g`oyaviy-estetik mazmuni obrazga singdirishi, ruhiy holat, his-tuyg`ular tadrijini namoyon eta olishi kerak. Ishqiy lirikada bu jihatdan an`anaviy oshiq va ma`shuqa, raqib va do`st obrazi yetakchilik qiladi. Poetik timsol va ramzlar shu to`rt obrazdan birining g`oyaviy-estetik qarashlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi. «Bulbul», «parvona», «samandar», «chug`z» oshiq; «tabib», «gul», «sham» kabilar ma`shuqa, go`zallik; arslon yo shunqor – mardlik; tulpor, g`oz, turna –

⁴ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.1-jild, Toshkent, 1978-yil, 119-bet

⁵ Qarang: Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.1-jild, Toshkent, 1978-yil, 119-bet

⁶ O`sha asar, 120-bet

do'st, elchi timsoli sanalib, tashbeh, istiora yordamida shakllanadi. Poetik timsol ikki jihatni o'zida namoyon etadi: birinchisida badiiy timsol lirik qahramonga yonma-yon qo'yib qiyoslanadi, ikkinchi holatda esa u bevosita lirik qahramon o'rnida keladi.

Folklorshunos olim Shomirza Turdimov xalq qo'shiqlaridagi ramziy obrazlarni teran tahlil etib o'tgan. Uzuk, olma, mayiz, ro'mol kabi narsa-predmet, ranglar, ayrim samoviy jismlar, tabiat hodisalari, jang qurollari esa ramz hisoblanib, obrazning fikr-maqсадini ifodalash yo'lida maxsus ko'rsatkich vazifasini o'taydi. Chunki ramz bu - belgi, alomat orqali mohiyatga ishora. U ko'rgazmalilik, badiiy shartlilikka suyanadi.

Olma otdim daryoga,

Qalqidi-yu, cho'kmadi.

Erginamning o'tlari

Lovulladi, o'chmadi.⁷

She'rda olma - muhabbat ramzi. Muhabbat olmaning alohida ajralib turadigan xarakteri emas, shuning uchun u timsol bo'lolmaydi. Ijrochi o'z tuyg'ularini to'g'ridan to'g'ri oshkor qilmay, "olma otish" orqali maqsadiga ishora qilgan. Bu jihatdan, lirik qahramon va kuy, cholg'u munosabati alohida e'tiborga loyiq.

N.Kostomarov simvol - obraz va simvol - belgini bir-biridan farqlab, ramzlar sun'iy ravishda qabul qilinib, o'ta shartli mazmunga egalitini ta'kidlagan. Timsol faqat adabiyot va san'atga daxldor tushuncha hamda tabiiy, asliy asoslarga ko'ra vujudga keladi. Ramzlar esa ilmiy-texnik, ijtimoiy yo'nalishlarda ham uchraydigan, maqsadli tarzda yaratilgan maxsus belgilardir. Bayroq, gerb - davlat ramzi.

Adabiyotshunos olim Dilorom Hamroyeva o'zining "Obraz, timsol va ramz" nomli maqolasi shunday yozadi: "Poetik ramzlarda shartli ishora badiiy mazmun kasb etadi. Shoir falak, charx, gardunni tilga olsa, ayriliq va hijrondan

⁷ O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent, 1985- yil, 57-bet

soʻz ochadi. Ammo charx, gardun ayriligni ifodalamasligi ham mumkin. Ramzlar shartli belgi boʻlgani uchun oʻzgaruvchidir. Vaqt oʻtishi bilan baʼzan ijtimoiy davr, ruh oqimlar taʼsirida oʻz maʼnosini oʻzgartiradi. Yaʼni ramz muallif maqsadiga koʻra qoʻllanilib, maʼnosi matn ichida, keyingi misralarda anglashiladi. Zamiridagi yashirin ramziy maʼno faqat shu matn doirasida qolib ketishi ham mumkin. Ayrim oqim, taʼlimot, yoʻnalishlarga tegishli ramzlarni oʻz maxsus kitoblari yordamidagina sharhlash mumkin. Timsollar esa boshqa asar yoki voqelikka ishora qilib, mazmunni oʻzida tashiydi”⁸. Shuning uchun ramz timsol singari muayyan bir tushuncha doirasida anʼanaviylashmaydi. Balki bir predmetning oʻzi ramz sifatida turli davr, millat, guruhlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Masalan, qon - tiriklik ramzi, hayotdan darak beradi.

Ramziylik sheʼriyatning oʻquvchini mushohadaga undaydigan, yashiringan sir-u asrorlarni topish talablarini ham qoʻyadi. Bugungi kun sheʼriyatidagi metaforik, koʻchimning turlari: ramz, istiora va majoz kabi turlari keng qoʻllanilmoqda. Adabiyotshunos olimlar B.Sarimsoqov va E.Ochilovlarning “Hozirgi oʻzbek sheʼriyatining taraqqiyot tamoyillari” suhbat-maqolasida bugungi sheʼriyatdagi ramziy ifodaviylikdagi yangilanishlar va ularning obrazlilik mohiyati xususida bahs boradi.⁹ Umuman, keyingi yillar sheʼriyati adabiyotshunoslikda koʻplab bahslarga sabab boʻlmoqda. Bu borada Q.Yoʻldoshevning “Yoniq soʻz” kitobiga kiritilgan maqolalar, M.Yoʻldoshevaning “Sheʼr muhimmi, shoir?”, U.Hamdanning “Badiiy tafakkur tadriji” hamda N.Rahimjonov, Sh.Hasan, B.Roʻzimuhammadlarning ilmiy maqolalarida sheʼriyatdagi shakliy oʻzgarishlar, soʻz qoʻllash, ifodaviylikning turli qirralari tahlilga tortilmoqda. Buni adabiyotshunos olim Q.Yoʻldoshev shunday izohlaydi: “...oʻtkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql oʻrgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga eʼtibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish,

⁸ Hamroyeva D. Obraz, timsol va ramz. / Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 2008- yil, 74-bet

⁹ Sarimsoqov B., Ochilov E. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatining taraqqiyot tamoyillari // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, 2007-yil, 3-son

odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi”¹⁰.

Milliy mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy ko`rinishi bu milliy mafkura bilan xarakterlanadi. Milliy isiqolning asosiy shartlaridan biri mafkuraviy mustaqillikdir. U o`zida millat taraqqiyotining g`oyaviy yo`nalishini aks ettiradi. Mafkura o`z mazmuni va mohiyatiga ko`ra ham yangilayotgan jamiyatning yo`nalishini, uning qiyofasini belgilab beradi. Milliy mafkura taraqqiyotida milliy an`analarga, qadriyatlar, madaniy merosiing ahamiyati katta. Chunki mafkuraning milliylik xususiyatlari xalqning an`analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Mafkura konsepsiyasi esa xalqning tarixiy rivojlanishidagi tajribalarini asos sifatida qabul qiladi. Bu o`rinda esa milliy an`analar va qadriyatlar millat mafkurasiga ham mohiyat, yo`nalish, mazmun va shakl beradi. Shu boisdan ham milliy mafkura taraqqiyotini milliy an`analarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi, Bu borada lirika katta rol o`ynaydi va o`ynayapti. Bunga Shavkat Rahmonning she`riyati yaqqol misol bo`ladi. Uning «Bo`sag`a» she`rida quyidagi satrlarni o`qish mumkin:

*Panoh so`radimmi borimni yechib,
o`zni urdimi yo biron eshikka?
Qaltis lahzalarda orimdan kechib,
Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka?!
Qaltis lahzalarda sinalar paytim
dunyoning ko`ziga qaradim qattiq...¹¹*

Bu o`rinda ajdodlarimizga xos bo`lgan insoniy g`urur, jo`mardlikni anglab olish qiyin emas, ya`ni katta insoniy qadriyatni. Uning «Eski she`r», «Turkiylar», «Sharhi hol», «Tariqat» kabi she`rlari ilgari surilgan fikrlar milliy g`oya va milliy mafkuraning shakllanishiga xizmat qilishi shubhasizdir. Sharq she`riyatida yaratilgan «Arbayin»larda avval hadisning arabcha. forscha yoxud turkiy

¹⁰ Yo`ldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari. // Sharq yulduzi jurnali, 2001-yil, birinchi fasl, 8-bet.

¹¹ Shavkat Rahmon. Saylanma. Toshkent, 2004-yil, 126-bet

tarjimasi keltiriladi, keyin nasriy bayoni beriladi. A.Oripovda esa hadisning asl shakli keltirilmay o`zi berilaveradi. Chunki, gap shaklida emas, mazmun va mohiyatdadir. Bugungi she`riyatga A.Oripov «Haj daftari» va «Hikmat sadolari» turkumi bilan hozirgi o`zbek she`riyatiga diniy ma`rifiy g`oyalarni birinchi bo`lib olib kirdi.

Modern she`riyat ta`siri R.Parfi, B.Ro`zimuhammad, A.Qutbiddin va Faxriyor ijodida ko`proq ko`rinadi. Taniqli olim Ibrohim G`afurov yozganidek, «ular shaklda ko`proq Nozimga (Nozim Hikmat) va Neruga ergashadilar. Nerudan fikrning quyuqligini, fikrlarning oqim kabi harakat qilishini o`zlashtiradi. Nozimdan esa shakllarning grafik tasvirini , so`zni baland darajali ehtiros nuqtasiga olib chiqishni o`rganadilar».

Zamonaviy she`riyatning o`ziga xosligi aytib bo`lmaydigan sezimlarni shakllar, qabariq tasvirlar, obrazlar orqali mujassam bo`lganida. Modern she`riyatning yana o`ziga xosligi hisni emas, ko`proq fikrlashga o`quvchini undashida.

Bahrom Ro`zimuhammadning bir she`rida shunday misralar bor:

*... bitta so`z qoldirgim keldi
ruh yerto`lasidan o`g`irlangan so`z
osmon hidi keladigan so`z
dunyoning o`zi qadar
anglab bo`lmas sir qadar¹²*

misralardan suratlanayotgan hissiyot holat tugallanmaganligini, shoir hamma gapini aytishga urinmaganligini payqash mumkin. Shu shoirning:

*ko`zdan ichkariga yo`l yo`q
so`zdan ichkariga yo`l yo`q
ammo xo`roz qichqirig`i ortiga
shafaqrang qishlog`im bekinib olgan*

¹² Ro`zimuhammad B. She`rlar // "Yoshlik" jurnali, 6-son, 2001- yil, 43-bet

satrlarida musiqiylik odatdagi she'rlarniki kabi sezilarli emas. Ammo unda ijodkorning chigal kayfiyati bor. Xo`roz qichqirigi tongning belgisi. Demak, tong o'tsa, xo`roz qichqiradi. Xo`roz qichqirsa, shafaqrang qishloq namoyon bo`ladi. Qishloqning shafaqrangligi ham bejiz emas. Ehtimol, qishloq endigina ko`tarilayotgan quyosh nuriga ko`milgani uchun ham shunday ta'riflanadi.

Badiiy asarlarning qismatini fransuz adabiyotshunosi Rolan Bart asar umrini ikki omil: badiiy matn muallifi bor (tirik)ligi va muallifi yo`q (o`lgan)ligiga asosan belgilab, o`zining "Muallifning o`limi" nomli maqolasida shunday degandi: "Mukammal asarlarda muallif fikri ishtirok etmasligi kerak. Muallifning matnda o`lishi matn umrini uzaytirdi. U faqat o`quvchiga fikrlash uchun xomashyo berishi, o`z pozitsiyasi bilan uning xayolotini cheklab qo`ymasligi va bu bilan asar matnining bir necha ma'noli bo`lishini ta'minlashi zarur"¹³. Olim bu yerda asar muallifining jismoniy o`limini nazarda tutmaydi. Muallifi bor matnlar deyilganda, yozuvchi pozitsiyasi ma'lum bo`lgan asarlar, muallifi yo`q matnlar deyilganda esa, ijodkor qarashi ustuvorlik qilmagan asarlar tushuniladi. Bunday asarlarni tahlil qilish, baho berish o`quvchidan muayyan badiiy tayyorgarlikni, so`z va uning ma'nolarini nozik ilg`ashni, olam hodisalarini badiiy idrok eta bilishni talab qiladi. Bu omillar, albatta, asar saviyasini belgilovchi oxirgi, qat'iy mezon emas, shunday bo`lsa-da, asarning adabiyot olamidagi o`rnini, badiiy salmog`ini ko`rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotimizda yaratilgan qaysi asarni olmang, deyarli barchasida yozuvchi "men"i u yoki bu darajada bo`y ko`rsatib turadi, chunki asar ko`ngil mevasi, u ijodkor ichki "men"idan, dunyoqarashidan, tajribalari, orzu-umidlaridan, nihoyat, og`riqlaridan yaraladi. Unda ijodkor shaxsning aks etmasligi mumkin emas va bu narsa asar saviyasini hech ham tushirmaydi¹⁴. Bo`lmasa, asar boshida yaratilgan "O`tkan kunlar"ning to hozirgacha sevib o`qilishini qanday izohlash mumkin? Axir Otabekning ichki va tashqi ko`rkamligida, Yusufbek hojining vatansevarligida,

¹³ www.literature.uz. Sayti materiallaridan foydalanildi.

¹⁴ Yo`ldosheva M. She'r muhimmi, shoir? // "Yoshlik" jurnali, 4-son, 2003-yil. 37-bet.

Mirzakarim qutidor andishasida Qodiriy "men"ining ko`rinishlari namoyon bo`lmaganmidi? Ammo masalaning yana bir tomoni ham bor. Asar yozuvchi ijodi, farzandi bo`lish bilan birga alohida, mustaqil olam hamdir. M.M.Baxtin o`zining "Adabiyotshunoslikka qarshi" maqolasida aytganiday: "Ijodkor hech qachon o`zi yozgan asarda namoyon bo`lmaydi, chunki u yaratuvchi, o`zi yaratgan olamda yaratiq bo`lishi mumkin emas". Asar ko`ngildan qog`ozga tushgan daqiqadan boshlab umummulkka aylanadi, xuddi bir inson kabi o`z taqdiri, umri, tutumiga ega yaratiq bo`ladi. U ham tug`ilishi, yashashi va o`lishi mumkin. Asar har qancha madh etilmasin, jild-jild taqrizlar bitilmasin, o`zida bir ilohiy joziba bo`lmasa, vaqt o`tishi bilan unutiladi, ya'ni o`ladi. Bunga yo`l qo`ymaslik uchun esa asar muallifi "matnda o`lishi", asarda uning badiiy irodasi o`qlog`day bo`lib turmasligi lozim. Ya'ni yozuvchi kitobxon xayolotiga chegara qo`ymasligi, unga davriy, siyosiy sharoitlar hukmini o`tkazmasligi, asar voqealarini boshqarmasligi, o`z fikrini singdirishga urinmasligi kerak. Rolan Bart asarda yozuvchi pozitsiyasi ma'lum bo`lmasligi zarur, deganida, fikrimizcha, shularni nazarda tutgan. Shunda asar ko`p ma'noli, serqatlam bo`ladi, shunda har safar o`qilganda yangi-yangi qirralar kashf etilaveradi, shunda o`qigan har bir kitobxon bir-birini takrorlamaydigan alohida taassurotga ega bo`ladi, uni o`zicha tahlil etadi, asar hamisha navqironligicha qoladi. Har kim asarni o`z didi, dunyoqarashi, tarbiyasi, muhiti, yashayotgan zamoni va h.k.larga ko`ra talqin qilaveradi. Bunday asarlarga zamona ham, tuzum ham, asosiysi, vaqt ham hukmini o`tkazolmaydi. Va o`quvchi uni har safar ilk bor o`qiyotganday taassurotga ega bo`ladi.

O`quvchiga necha bor o`qilishidan qat'iy nazar yangi tuyg`ular tuydiradigan "muallifsiz" matnlar adabiyotda Anna Kareninaning o`limini istamagan Tolstoy misolida ma'lum. "Muallifsiz" matnlar o`zbek adabiyotida ham doim bo`lgan va shunday ijodkorlardan biri Bahrom Ro`zimuhammaddir.

Bahrom Ro`zimuhammad she'riyati asl ijodkor oldiga Rolan Bart qo`ygan talabga javob beradi, deb bemalol aytish mumkin. Avvalo uning she'rlarini tahlil qilish, hatto qabul qilish birmuncha mushkul. Negaki, SO`Z aytish qobiliyati har

kinga ham nasib etavermaganiday, SO`Zni qabul qilish, anglab yetish iqtidori ham hammada birday emas. Shoir B.Ro`zimuhammad so`zni shunday ustalik bilan ishlatadiki, uning qa`rida, albatta, bir necha ma`no bo`ladi. Shoir she`rlarining hatto zohiriy ma`nosi ham ko`p qatlamli bo`ladi:

*Iz tushmagan qordek
quyoshgacha yoyilib ketdi tong
daraxt shoxlari bo`rtib ko`rinar...*

"Tong manzarasi" deb nomlanuvchi mazkur she`rni tabiat tasviri tarzida ham, shoir ruhiy holatining eng pok, sokin, ko`tarinki pallasining so`zga aylangan shakli deb ham tushunish mumkin. Kitobxon she`r o`qiyotgandagi holatiga ko`ra uni har safar o`zgacha anglayveradi. Masalan, "Iz tushmagan qordek" misrasini shoir tongni bezovta qilmagan, tongga yo`l tushmagan, deb ham, tabiat va vaqtning uyg`un tasviri deb ham izohlash mumkin. Ta`kidlashlaricha, eng shirin va qattiq uyqu payti erta tongga to`g`ri kelar, shu vaqtda uyqudan uyg`onish qiyinroq kecharkan. Shundan ko`rinadiki, shoir tunni bedor o`tkazgan:

*qush qanoti ko`milib qolgan -
yoqut ufqqa tutashadi harir gilam.
Gilam ustida
undan ham harirroq tuman.¹⁵*

"Qush qanoti ko`milib qolgan - yoqut ufqqa tutashadi harir gilam" satrlarini dastlab "erta tongda ufq endi chiqayotgan quyosh nurlaridan qirmizi tusga kiradi - yoqut ufq. Maysalar bilan qoplangan va ufqqa tutashib ketgan yer - harir gilam. Quyosh nurlari tungi salqin havoni asta-sekinlik bilan qizitishi natijasida paydo bo`lgan narsa – gilamdan-da harirroq tuman. Mana shu tuman ortida esa elas-elas oppoq paruq bulutlar ko`zga chalinadi - qush qanotlari "ko`milib qolgan" tarzida anglash ham va "shoir ko`nglining tasviri, qush ehtimol ruhdur, tun bo`yi o`zini har yoqqa urgan bezovta ruh tong chog`i harir gilam - ko`ngilda tin olgandir, gilam

¹⁵ Ro`zimuhammad B. She`rlar // "Yoshlik" jurnali, 6-son, 2001-yil, 43-bet

ustidagi undan-da harirroq tuman esa ilhomdir, balki ijodkor" deya qabul qilish ham mumkin.

*Sovuq yulduzchalar qoldig`i,
yulduzchada tillarang hoshiya.
To`yib nafas ol
Shaffoflik xira tortguncha.
(Dum-dumaloq nafas
yulduz qirrasida titrar).*

"Sovuq yulduzchalar qoldig`i"dan erta tongdagi titrab turgan muzday shudring tomchilari tasvirini yoki oppoq qorga tushayotgan quyosh nurlarining jilvalari ifodasini topgan har bir o`quvchi o`zicha haq. "To`yib nafas ol" - qishda nafas olganda og`izdan chiqayotgan iliq havo tashqaridagi sovuq ta`sirida ko`zga ko`rinadi: "Shaffoflik xira tortguncha". Ehtimol, shoir soflik, bokiralikdan bahra olmoqchiligini ifodalayotgandir. She`rda biror mavsumga aniq ishora yo`qliga bois tasvirni musaffo havodan boshqalardan burun to`yib nafas olvolishga chorlov tarzida ham tushunish mumkin. Chunki har bir odam ichiga yutgan kislorod (shaffoflik)ni karbonat angidrid (xira) qilib chiqaradi, havoni buzadi. Buni ezgulik qabohatga aylanmasdan oddin uni qabul qil deb tushunish ham mumkin.

Bahrom Ro`zimuhammad she`rlarida, ko`pincha, o`zini tamomila mahv etishga, o`quvchiga nima istayotganligini aytish u yoqda tursin, aksincha, chalg`itib, niyatini undan yashirishga urinish hollari ko`zga tashlanadi:

*It hangramas,
ko`kka qarab uvlamas eshak -
tovushim parvozdagi qiyofamdir.*

Shoirning ushbu "Parvozdagi qiyofa" she`rini anglash yengil kechmaydi. Ayniqsa, yuqoridagi misralar o`quvchini hayratlantiradi. Nega endi it hangrashi, eshak uvlashi kerak? Mantiqqa zid-ku bu! She`rni takror-takror o`qib, shundayam "tovushim parvozdagi qiyofam" ochqich jumlasini yordamidagina u haqdagi fikrga bir qadar oydinlik kiritish mumkin. Tovush - faoliyat. Faoliyat - parvoz. Chunki u

insonga asl mohiyatini ko`rsatish imkonini beradi. Shu ma`noda, tovushda har bir jonzotning asli bilinadi. Chigirtka chirillashi qurbaqa qurillashidan, bulbul xonishi bedana sayrog`idan farq qiladi. Shu kabi it ham hangramaydi (boshqa jonzot qiyofasiga kirmaydi), eshak esa it singari vovullamaydi, eshakligicha qolaveradi. Ya`ni ikkisi ham o`zligicha qoladi. Ularning o`zlikka egaligi, turlanavermasligi parvozdagi qiyofasidir. Shu sababdandir yaxshi ijodkor haqida: "O`z ovozigaga ega", – deyiladi. Yoki:

*g`adir-budir Kun tug`ildi,
to`rt tarafda shovqin -
arrakashlar shovqini*

tasviri nimani anglatadi? She`riyatning fusuni ham asli mantiqsizlik bag`riga mantiqni jo qila olishidadir. Tug`ilgan g`adir-budir kun va arrakashlar shovqini inson umri va uning tug`ilayotgan, o`tayotgan har bir kun hisobiga qisqarib, "arralanib" borishini bildiradi. Bu fikrlar - shaxsiy talqin, xolos. Ehtimol, shoir nazarda tutgan narsa bunga butunlay teskaridir. Balki boshqa o`quvchi she`rning butunlay boshqa qirrasini ko`rar.

Shoiri yo`q she`rlar sermazmun, tagma`noga boy, kishini o`ylanishga, izlanishga majbur etadigan, ohori to`kilmaydigan, sirliligini yo`qotmaydigan matnlardir. Aslida badiiy asar anglanilmagan qirralari bilan go`zal va sirlidir¹⁶. Adabiyotning kuchi ham shunda. Bunday joziba muallif ishtirokidan qat`iy nazar ilohiy shavq bilan yaralgan har bir asarda bo`ladi.

II.2. Istiqlol davrida doston shaklida yaratilgan asarlarga munosabat.

Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug`at» dostoni garchi istiqloldan avval yozilgan bo`lsa ham birinchi modern yo`nalishidagi doston bo`lgani uchun tahlilga tortildi. Dostonga Navoiyning

Dudi ohimning quyundek pech ila tobin ko`rung,
Tiyra hijron oqshomining bahri girdobin ko`rung.

¹⁶ Yo`ldosheva M. She`r muhimmi, shoir? // "Yoshlik" jurnali, 4-son, 2003-yil. 38-bet.

misrasi epigraf qilib olingan. Mana shu misra dostonning butun leytmotivini tashkil qiladi. Ya'ni shoirning nimadan kuyinishi, iztirob chekishi, uning sabab-oqibatlarini noan'anaviy usulda inkishof qilingan. Doston ixcham: o'n besh qismdan iborat. Har bir qism o'z kompozitsiyasiga va mustaqil motiviga ega. Birinchi qismda bobo bilan nevara muloqati beriladi. Boboning yelkasida sanduvoch o'tiradi. Bilamizki sanduvoch (bulbul) muhabbat, ezgulik ramzi. Bobo pichirlaydi, «Yurakni ko'p etmajak makon». Nevara tushunmayman, deydi. Lekin mushohada qilinsa, bu gapning zaminida katta fikr borligi anglashiladi. Ma'lumki, odamzodning ko'zi och bo'ladi. «o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymaydi» degan maqol bejizga aytilmagan. Aql va yurak uni jilovlab turmasa, ko'p noxushliklar sodir bo'lishi mumkin. Ana endi ko'z yurakni makon tutib olsa, nima bo'lishini tasavvur qilib ko'ring. Bobo shundan tashvishda. Boboning gapini sanduvoch ham tasdiqlaydi («Sanduvoch boshini qimirlatar bir marom»). U yana pichirlaydi:

Tilni ipdek eshib bo'larmi.
Jonni bo'lurmi unga o'tqazib,
Keyin sanab bo'lurmi jonni
Oxirgi kungacha, uzmasdan?!

Bu yerda bobo qilishi lozim bo'lmagan narsalarni bajarishga urinishning oqibatidan xavotirda. Bobo yana gapiradi:

... – Odam –
etga o'ralgan, et esa zahar.
Kosasida biqirayotgan - ko'pikdir?!

Turkiy tasavvuf she'riyatining yirik vakili Yunus Emro «To'rt kishidir yo'ldoshim... deydi. «Ul to'rtning biri - jon, biri - din, biri - imon, biri - nafsdur»¹. Nafs uchala yo'ldoshning ham dushmanidir. Inson jismini, ruhini pok saqlamoq uchun nafsni tiyish kerak. Nafsni tiymaslik esa tanaga zahardek ta'sir qiladi.

Ikkinchi qismda ham boboga murojaat qilinadi. Bobo bu o'rinda donolik to'g'rilik ramzi. U Ollohning qudratini anglashga, o'shanga qarab qadam

¹ Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. –T.: 1991-yil, 17-bet.

tashlashga undaydi. Shunday qilinganda inson yomon harakatlardan o`zini tiyadi. Bu bilan hayotning bir maromda davom etishini va o`zining umrini ta'minlaydi. Shoir shulardan kishini ogoh qilar ekan, masala mohiyatini bugunga buradi. U yozadi:

Shunda farog`at mamlakatlari, millatlari, odamlari
Hech qachon bir-birlarini kamsitmaslikka ont ichishadi.
Tilni, qalbni, naslni buzmaslikka, ezmaslikka
Qasam yod qilishadi. Tiyilishadi!
Dengizlarni quritishmaydi,
o`rmonlarni kesishmaydi,
Osmonni teshishmaydi.

Bu yerda izohning hojati yo`q. Chunki shoirning nima demoqchi ekanligi shunday sezilib turibdi.

Keyingi qismlarda dunyoni kemiruvchi va kemiriluvchilar o`z qilmishlariga yarasha jazosini olib, kavakdagi sichqonlarday kavaklarda chiy-chiylab yurgan sichqonlarga o`xshatsa, boshqasida esa qo`rqanligi, hamiyatsizligi, g`urursizligi tufayli o`z yeriga boshqalarni xo`jayin bo`lishiga yo`l qo`ygan, o`z qiyofasini yo`qotgan shaxslar fojiasini chizadi. «Qo`li maymunnikiday oyoqlari filsiyoq... Belkurakka suyanib tamaki tutatib» turgan odam mozorni buza boshlaydi, chiqqan narsani qopiga joylaydi, gumbaz va minorlarni maydalaydi. Vijdoni jindaygina bosh ko`targan odamni «Nima qilyapsan?» degan so`rog`iga shunday javob beradi:

- Xo`jayin xursand bo`ladi
sut beradi
Yovg`on beradi,
Osh beradi kechqurun

- deydi va suyaklarni irg`ita boshlaydi. Bundan g`azabga kelgan odam belkuragini tortib olib, «o`ldiraman» deganiga:

U hayron bo`ldi. Angraydi. Birdaniga piqillab
yig`lay boshladi:

– sen xo`jayinning dushmanisan, sen davlatga qarshi,
– sen... sen... sen
xo`jayin mendan xafa bo`ladi,
endi nima yeyman?

Shu lavha Gulxaniyning «Zarbulmasal»idagi «Tuya bilan bo`taloq» masalini yodga soladi. Tuyaning erki o`zida bo`lmaganidan, bolasini emiza olmaganidek, bu barzangining ham ixtiyori o`zida emas, yuqoridagilarda. Shoir yozadi:

Boshini sarak-sarak qila boshladi,
Eshakday chopdi-da ketdi.
Gangib turib qoldim uzoq muddat,
Keyin qo`llarim, oyoqlarim,
Oyoqlarim, qo`llarim
Bir, ikki, uch...
Mozorni tepkilay boshladim.

Ha, muhit kuchli. Zo`ravonlik har qanday irodani ham sindiradi, mute qiladi. Bu hol kechagi kunimiz qiyofasi va o`zimizning fojiamizdir.

Mana ko`rib o`tganimizdek, modern yo`nalishidagi she`riyat ezgu g`oyadan holi emas, faqat tashbehlar, voqea tasviri noreal. Agar mohiyatiga nazar solinsa, uni inkor qilish noo`rin.

Umuman olganda, Abduvali Qutbiddinning hayotga qarashi, dunyoning idrok etishi an`anaviy emas, boshqachadir. Doston ham xuddi shuning mevasidir. Bu haqida yozuvchi, adabiyotshunos Ulug`bek Hamdam shunday deydi: «Dunyoda azal-azaldan ikki buyuk kuch bor, Dunyo azal-azaldan shu kuchlarning orasida taqsimlab olingan. Birining ismi – Oq, ikkinchisining esa – Qora. Ismlarning boshqacha talaffuzi ham mavjud: Ezgulik va Yovuzlik, Ma`rifat va Johillik, Malaklik va Shaytonlik, Ozodlik va Tutqunlik, Ruh va Jism (Nafs)... Shoirning pirovard maqsadi go`zallik yaratish bo`lsa-da, o`rni kelganda barobar, ezgulik va ma`rifat, halollik va shafqatlilik... yonida, ular bilan bir safda turib kurashadi.

Chunki uning yaratilishi shunday. Shoir dunyoda oq rangning ko`p bo`lishi, g`olib bo`lishining tarafdori. Agar qora rangning hissasi ko`payib, atrofni Yovuzlik, Jaholat, Tutqunlik, Nafs kabi balolar qoplay borsa, shoirning bag`ri ulkan jang maydoniga aylanadi. Shaxsan uning «mushugini birov «pisht» demasa-da» hassos qalbi Dunyo muvozanatiga putur yetkanidan nihoyasiz iztiroblarga tushadi...

Dostonning «Izohsiz lug`at» deb nomlanishining siri... asosida turgan o`sha ikki azim Kuchlar qismatini eslasak, nomlanish mantiq va mazmun kasb eta boshlaydi: izohsiz lug`at, ya`ni izohga hojat yo`q! Dunyo-dunyo bo`libdiki, dostonda tilga olingan Kuchlar va ularning omonsiz jangi bor. Dunyo deb atalgan kitob shu ikki so`zdan iborat: Oq va Qora! Biroq ularga izoh berilgan, izohni har kishining o`zi yozadi, kimning qismatiga oqni ta`riflash, kimnikiga qoraning sharhini bitish tushadi. Shunga qaramay, shoir baribir o`z tanlovini izhor qilib ketmoqda:

Barmog`im qaboqqa qo`ydim, o`rtandi,
Emrandim, nigohim tindi, aylandi.
Bildim, a`zoyi badanim hayot shirasidan,
Hamshiram – turna,
Qondoshim – jayron,
Jigarim – arg`uvon.

Xonu turobdaman,
Inim-qumursqa, og`am-ot,
Bildim – odamiyzodman,
Odamiyzodman...

So`nggi «Bildim – odamiyzodman, Odamiyzod», degan misra shoirning o`sha mangu kurashda qaysi tomonda ekanini bildiradi... Chunki odamiyzod bo`lish oson

emas, buning uchun kishi «Qora»ning lazzat-farog`atidan voz kechib, «Oq»ning zahmatlariga bardosh berishi shart!..¹

Noan'anaviy tashbehtar zaminida qanday g`oya yotishini, ularning ayrimlari estetik tasvirdan holi ekanligini taniqli yozuvchi olim Pirimqul Qodirov juda yaxshi ochib bergan: «Modernizmda moziyning an'anasiga amal qiluvchi ayrim ijodkorlar ham insonlar va hatto millatlarga nisbatan juda balanddan kelib, katta-katta ayblar qo`yadilar.

Buning bir misolini iste'dodi ko`pchilik tomonidan tan olingan taniqli shoir Abduvali Qutbiddinning... «Izohsiz lug`at» nomli dostonida ko`rish mumkin. Bu dostonida o`tmishdagi mustamlaka zulmi ostida yashagan insonning fojiviy xatolari quyidagicha izohlanadi:

Vataning bor edi, sotding,
Onang bor edi, otding.
Lazzatga, safoga, ishratga almashding bor-u budingni
cho`chqaga xizmatga kirding,
to`ng`izning amrini bajarding
esizgina odam, qizil va sariq shoqol,
ko`z uzmay kuzatib turibdi har bir harakatingni.
ko`zingdan, burningdan bitlar chiqmoqdalar
amal-taqal qilib, og`zingdan semirib ketgan
qurbaqa zo`rg`a tushayotir – kekirtagini yorib
yuborar... Esizgina odam, achinaman, afsuslanaman...
kechikmadikmikan? Odamni qutqarmoqqa?!¹

Mustamlaka zulmi ostida ezilgan, aldangan, yomon xatolar qilgan, bor-u burdidan ayrilgan odamga shoir avval balanddan kelib dahshatli ayblar qo`yadi, bit va qurbaqalar timsolida uning qiyofasiga jirkanchli tus beradi. So`ng ayb faqat odamning o`zida emasligini, tuzum, muhit ham aybdor bo`lganini tushungani

¹ U.Hamdani. Dunyoni yangicha ko`rish ehtiyoji. Jahon adabiyoti. 2002-yil, 12-son, 153-154-betlar.

¹ Sharq yulduzi, 1990-yil, 10-son. 11-bet.

uchun «Esizgina odam!» deb chin dildan achinadi. Nihoyat kechikmadikmikan Odamni qutqarmoqqa?!» degan savol bilan o`z maqsadini anglatadi. Katta harf bilan yoziladigan odamni qutqarmoq esa ezgu maqsaddir. Shu tarzda dostonga insonparvarlik ruhi qaytib keladi.

Modern asarlarining yana bir xususiyati, ijodkor tabiat va jamiyat hodisalaridan tug`ilgan o`y-fikrlarini o`z tasavvuridagi holatlarda reallashtirishga intilishdir. Bu holatni Nabi Jaloliddinning «Chiptasiz odamlar» (1997) dostonida ko`rish mumkin.

Mixail Bulgakovning «Usta va Margarita» nomli mashhur asarida shunday epizod bor. Moskvada, Patriarx ko`li yoqasida Mixail Aleksandrovich Berlioz bilan shoir Ivan Poniryov bamaylixotir musohaba qurib o`tirishganda, ular o`rtasida bahs ayni qiziganda paydo bo`lgan notanish kimsa o`rtaga shunday savol tashlaydi:

«- Ha, attang! – dedi notanish ajnabiy ko`zini chaqnatib, so`ng gapida davom etdi: - Lekin meni boshqa masala bezovta qilyapti: agar xudo yo`q bo`lsa, unda bashariyat hayotini va umuman, yer yuzidagi barcha jonzotlarni Kim boshqaryapti, degan savol tug`iladi.

Bu, ochig`ini aytganda, uncha oydin bo`lmagan savolga Bezdoromiy jahl bilan shosha-pisha javob qiladi:

- Kim bo`lardi, insonning o`zi-da!»². Bu fikr dostonga ham tegishli bo`lib, uning zamiridagi g`oyani ochishga xizmat qiladi. Ma`lumki, hayotda, jamiyatda ro`y beradigan voqea-hodisalar (tabiat hodisalaridan boshqa barchasi) insoniyatning sa`y-harakatiga, qilmishiga bog`liq. Ularning faoliyati tufayli jang, urush bo`ladi, vayrongarchilik ro`y beradi, odamlar kulfatlarni boshidan kechiradi, taraqqiyot tanazzulga yuz tutadi yoki gullab-yashnaydi, xalq har tomonlama farovonlikka erishadi. Lekin ko`pchilik, bu holat davr, zamon, jamiyat, muhit, sharoitga nisbat berishadi. To`g`ri, uni qaysi bir ma`noda ta`sir qilishi fakt. Biroq ularni yuzaga kelishi insoniyat aql-zakovati yoki johilligi mevasi ekanligini

² Bulgakov M. Usta va Margarita. –T.: 1987-yil, 17-bet.

unutmaslik kerak. Nabi Jaloliddin dostonida masala mohiyatini to`g`ri yoritgan holda, negadir o`ziga qarshi ham boradi. Shoir yozadi:

Lovullab keladi nimadir,
Qarsillab keladi bir balo
Teshilar,
Yonadir,
Sinadir,
to`kilar dunyo,
Yana kim biladi?...
Bilardir...
Bir chimdim umrga ishongan
Xayollar bag`rini tiladir.
Tegolmay qayrilgan nishonga
Yoylar biladir.
Tinmayin qilgan u tavallo –
Yo nafs
Yo la'in.

Demak, inson bir chimdim umrini abadiy deb bilib, Yaratganni unutib, nafsga berilish orqali boshiga balolar yog`iladi. Dostonning ikkinchi qismida bu kimsalarning ta`rifini beradi:

Tangrining yuziga oyog`in
Bigiz qilolmay dahriy

- deydi. Bu juda to`g`ri ta`rifdir. Lekin shoir o`sha joyda XX asrda insoniyat boshiga yog`ilgan balo-qazolar uchun ba`zi bir insonlarni emas, asrni qoralaydi, uni la`natlaydi:

Yigirmanchi asr...
Ko`zing teshilsin.
Agar bo`lsa o`sha ko`zlaring
Ko`zlaring yo`q,

yo`q edi sening,
Yigirmanchi asr –
So`qir ajdaho!..

Vaholanki, bu balolarda asrning aybi yo`q. Agar insoniyat raqamlar bilan belgilab, vaqtni hisoblamaganda, uni qaysi asrligi ham bilinmaydi. Tabiiy yuz beradigan hodisalarni hisobga olmaganda hayot uchun kundan – kunni, oydan – oyni, yildan – yilni, asrdan – asrni farqi yo`q. XX asrda yuz bergan barcha fojialarni o`q ildizi inqilob yaratgan xudosizlarga borib taqaladi. Ular yurtni ko`plab asl farzandlarini, ya`ni imon-e`tiqodli, xalq manfaati, erki uchun yonib kuyadigan, kurashadigan, g`ururli insonlarni chiptasiz, o`z ona yeridan munosib joy ham bermay, borsa kelmasga jo`natadilar.

Taqdiri azal degan fikr bor gap. Bu insoniyatning foniy dunyodan abadiy oxiratga ketish muddati. Bugungi til bilan aytganda umri belgilangan chipta. Bu hol tabiiy holda ro`y bersa, barcha narsa tinchlik bilan o`tadi. Lekin insoniyat qo`li bilan sodir etilsa, Dunyo to`lg`onadi. Chunki u chiptasiz jo`natiladi. Ma`lumki, chiptasizning joyi, makoni bo`lmaydi. Buning so`rovi bor. Bu ishni qilganlarga bir umr tavqi la`nat yog`iladi. Bundaylar “Osh berganga tosh beradilar”, mana, shoir bu haqida nima deydi:

Sharqning bolasi –
Turkiston!..
«Shimol och!»
Oshini berdi
Va boshini berdi
Boshini yedi uning
Shimoliston

Barcha dinlar muhtojlarga muruvvat qo`lini cho`zish insoniylik sanaladi. Lekin dinni inkor etganlar uning mohiyatini tushunmaydi. Ular nafs bandalari. Olgan sari olgisi keladi. Biroq hamma narsaning chegarasi bor. Shuni anglatmoqchi bo`lganlar esa ularning dushmani. Bular esa yurtning asl farzandlari,

Zardusht tili bilan aytganda, a'lo insonlar. Bulgakov va Cho'lpon shunday insonlar edi. Bu borada shoir yozadi:

O`n ikki yil kuygan junun.
«Yo haq!» deya suygan junun,
Bilarmidi Turkiston aro
Ulug` yarog` otilgan kuning?!
Moskovda,
Chekka bir kulbada,
Toshkentda,
Chekka bir o`rada
Jonini topshirgan,
Shonini topgan
Ikki buyuk so`z
Bir juft sog`inch
Mixail
Cho`lpon

Bular yaratganning bergan umr muddatini na'sh-u namo bilan yashashga to`la haqli edi. Lekin «Bo`ynida kapalak bo`yinbog`li»lar umr sha'mini erta so`ndirdilar, ya'ni chiptasiz oxiratga jo`natdilar. Ularning o`rnini egallab, shuhrat taxtiga o`tirmoqchi edi, biroq la'nat kursidan joy olishdi. Ularning nazdidagi «chiptasizlar» esa hayot poydevoriga ezgulik g`ishtini qo`yishga ulgurganlari uchun umrini abadiylashtirdilar. Doston zamiridagi g`oya mana shudir.

XULOSA

Hayot va jamiyatdagi barcha o`zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Tafakkurida o`zgarish bo`lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o`zgarish bo`lishi dushvordir. Istiqlol davrining yuzaga kelishi ham shuning mahsulidir. Ma'lumki, o`z navbatida har bir jamiyat o`z muammosini yuzaga keltiradi, bunga muvofiq insoniyatning hayotga qarash tarzini ham o`zgartiradi. Bu ruhiyat bilan bog`liq masaladir. 70 yil davomida ma'naviyat, milliy axloq asosi bo`lgan dinidan, o`tmishda o`zini kim bo`lganligini namoyon qilish qudratiga ega bo`lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo`lgan xalq istiqloldan keyin bunga muyassar bo`lgach, unda o`zidan, o`z millatidan g`ururlanish tuyg`usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo`ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo`ladi. U hamma narsani yorqin ko`radi, mohiyatini to`g`ri anglaydi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: «Odamlarda o`zligini anglash, milliy g`urur, oriyat, o`tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o`z qo`limizga olganimizdan g`ururlanish kabi tuyg`ular kamol topyapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapti»¹. Bu fikr bugungi kun adabiyotiga ham tegishlidir.

Ma'lumki, hayotda, jamiyatda ro`y bergan o`zgarish albatta adabiyotda o`z aksini topadi. Bu narsa, ayniqsa, she'riyatda yorqinroq ifodalanadi. Bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she'riyat ko`proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida ko`proq hayot ziddiyatlarini ko`rsatgan bo`lsa, bugungi she'riyat esa o`z nigohini inson botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg`ularini ochib berish borasida kishini o`zini o`ziga tanitdi. Bunda u o`ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko`chimlardan foydalandi, ularga alohida e'tibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining murakkab tabiatini teran va to`laroq ochish, shuningdek, ta'sirliroq ifodalash bilan belgilanadi. Chunki bunga bugunda har qachongidan ham ko`ra ehtiyoj sezilyapti.

Hayot haqiqatidan shu narsa aniqki, shoirning falsafiy tafakkuri, hayotiy mushohadasi lirik qahramon, poetik obrazlar, ramzlar vositasida berilsa, davr

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996. 226-b.

ruhini, xalqning orzu istaklarini, inson kechinmalarini ta'sirchan va yuqimli bo'lishiga imkon yaratiladi. Bugungi she'riyatda shunday qilinyapti. Shuningdek, bugungi she'riyatda azaliy an'analarga bo'sunmaydigan yangi yo'nalish, yangicha usul yuzaga keldi. Bu modern she'riyatidir. Hayotdagi, insoniyat ruhiyatidagi o'zgarishlarni bugungi o'zbek nasri uni qahramonlari faoliyatida badiiy aks ettirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan va yorityapti. Shuningdek, u imon va e'tiqod, axloq, ma'naviyatga, milliylikka katta e'tibor beryapti.

Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni, odamning qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko'rinishlari inkishofi hamda voqea-hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo'naltirilganligi, qahramonlarning o'ta milliy va individuallashtirilganligi, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi bilan o'ziga xoslikka ega. Agar umumlashtirib aytsak, voqea-hodisadan ko'ra, insonning, uning qalbi tahlili birinchi o'ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi. Buni ijodkorlar yuqorida ko'rib o'tganimiz she'riy asarlardagi kabi shakliy va mazmuniy mushtaraklikda ifoda etib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch T.: Ma`naviyat, 2009.
3. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. T . 4. – T.: O'zbekiston, 1996
4. Normatov U. "Umudbaxsh tamoyillar". –T.: Ma`naviyat. 2000.
5. Xudoyberganov N. Mehr-u muhabbat yo`llarida. –T.: Yozuvchi. 2003.
6. N.Sharopova. Hozirgi o'zbek she'riyatida janriy izlanishlar tamoyili. «O'zbek tili va adabiyoti», 1996 yil, 5-son.
7. U.Hamdamiyov. Badiiy tafakkur tadriji. –T.: «Yangi asr avlodi», 2002.
8. Xotam Umurov. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002.
9. U.Normatov. Dunyoni yangicha ko`rish ehtiyoji. Jahon adabiyoti, 2002, 12-son.
10. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. –T.: 1991.
11. Pirimqul Qodirov. Ma`naviyat, modernizm va absurd. O'zAS, 2004-yil, 26- mart.
12. Fridrix Nitshe. Zardo'sht tavallosi. Jahon adabiyoti. 2004-yil, 1-2-3-4-sonlar.
13. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. –T.: Sharq. 2001.
14. Mo`minova Z. "Yonayotgan ayol". –T.: "Yozuvchi", 1992.
15. Karimov G`. Istiqlol davri she'riyati. –T.: Zarqalam, 2005.
16. Usmon Azim. Saylanma. "Sharq" nashriyot matbaa konserni. –T.: 1995.
17. Bahrom Ro`zimuhhammad. Soyalar suhbatlari. She`rlar to`plami. –T.: Zarqalam nashriyoti. 2006.
18. O'zbek adabiyoti (7-sinf uchun darslik-majmua) -Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2011-yil.
19. Yashar Qosim. Yangi o'zbek lirikasida ramzlar // O'zbek tili va adabiyoti jurnali,5/1998-yil.
20. Hamroyeva D. Obraz,timsol va ramz. / O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 2008-yil
21. Sarimsoqov B., Ochilov E.Hozirgi o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari // O'zbek tili v a adabiyoti jurnali, 2007 yil, 3-son
22. Yo`ldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari. // "Sharq yulduzi" jurnali, 2001
23. Yo`ldosheva M. She`r muhimmi, shoir? // "Yoshlik" jurnali, 4-son, 2003

Navoiy davlat pedagogika instituti
“O`zbek filologiyasi” fakulteti 4-kurs
bitiruvchisi Radjabova Nafisa
Mamarasulovnaning “Istiqlol
she`riyatida shakliy va mazmuniy
mushtaraklik” mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Komil inson tarbiyasi hamisha ta`lim va tarbiya bilan shug`ullanadigan o`qituvchilar oldiga jiddiy mas`uliyat yuklab kelgan. Xususan, yosh avlod tarbiyasida mustaqillik davrida yaratilgan she`riy asarlardan foydalanish, tarbiya jarayonida badiiy asarlarning tutgan o`rnini aniqlash pedagogik va filologiya ilmlarining mushatarak va dolzarb masalalaridan biridir. Taqrizlanayotgan mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusi mana shu jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ish tuzilishi jihatdan kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv ishning maqsadi va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi, tadqiqot ishining metodi va metodologiyasi kabi an`anaviy masalalar atroflicha yoritilgan.

Bitiruv ishning birinchi bobi “Hozirgi o`zbek she`riyatining taraqqiyot tamoyillari ” deb nomlangan. Bunda istiqlol she`riyatining o`ziga xos xususiyatlari poetik obraz va ularning tadrijiga hamohangligi borasida bitiruvchi o`z mulohazalarini bayon qilgan.

Radjabova Nafisa ishning “Bugungi o`zbek she`riyatida shakliy izlanishlar” nomli ikkinchi bobida mustaqillik she`riyatida ramziylik, o`zbek dostonchiligida shakily va mazmuniy mushtaraklik borasida kuzatishlarini amalga oshirishga erishgan. Ikkala bobda ham bitiruvchining filologik aspektidagi tadqiqotlarini mustaqil olib bora olish salohiyatiga ega ekanligining guvohi bo`ldik.

Bitiruv ishining xulosa qismida bitiruvchining mavzu yuzasidan barcha ilmiy-nazariy xulosalari umumlashtirilib yakunlangan.

Bitiruv ishi lotin alifbosida yozilgan. Mazkur ish bitiruvchining ilk mustaqil tadqiqoti bo`lganligini inobatga olsak, ishda ko`zga tashlanadigan kamchiliklar ishning saviyasiga putur yetkazmaydi.

Xullas, O`zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Radjabova Nafisaning “Istiqlol she`riyatida shakliy va mazmuniy mushtaraklik” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga to`liq javob beradi. Men ishni tugallangan talaba tadqiqoti sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

Mamatalimov Z.M.

Navoiy davlat pedagogika instituti
“O`zbek filologiyasi” fakulteti 4-kurs
bitiruvchisi Radjabova Nafisaning
“Istiqlol she`riyatida shakliy va
mazmuniy mushtaraklik” mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Hozirgi o`zbek she`riyatining ma`naviy miqyosi, badiiy salohiyati sezilarli darajada o`sdi. Shu ma`noda hozirgi o`zbek adabiyotida lirika alohida o`ringa ega. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg`ularni aks ettirish barobarida she`riyat jamiyatimizning har bir a`zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo`lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kun she`riyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy g`oyani ochib berish, uning yetakchi g`oyaviy-badiiy tamoyillarni aniqlash o`zbek she`riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi.

Radjabova Nafisa bitiruv malakaviy ishida o`zbek adabiyotining 90-yillar she`riyatini tadqiq etishga harakat qilgan. Ishning mazmuniy va shakliy tuzilishi mavjud talablarga javob beradi. Fikrlar izchilligiga erishish, muammolarning qo`yilishi va uni hal etish, boblararo bog`lanish masalalariga jiddiy e`tibor berilgan.

Bitiruv malakaviy ishida ayrim juz`iy kamchiliklar uchraydi. So`zlarning yozilishida ayrim imloviy xatolar, tagmatnni berishdagi har xilliklar shular jumlasiga kiradi.

Fikrimcha, bitiruv malakaviy ishi Davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan qo`yilgan talablarga javob beradi va uni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

f.f.d. A.Xolmurodov